



TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTLARI

ILMIY-NAZARIY JURNALI

SCIENTIFIC-THEORETICAL JURNAL

SCIENTIFIC BULLETIN

OF THE TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
ПЕДАГОГИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА



5/2024

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTLARI
ILMIY-NAZARIY JURNALI

5/2024

Bosh muharrir:

Qirg'izboyev Abdug'affor
Karimjonovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Abdujabbarova Feruza
Abdunazarovna

Jurnal Toshkent shahar Matbuot va
axborot boshqarmasi tomonidan
2014-yil 30-iyulda №02-00175
raqam bilan ro'yxatga olingan.

**“TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI ILMIY
AXBOROTLARI”**

ilmiy-nazariy jurnali O'zbekiston
Respublikasi VM huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasining
qaroriga ko'ra (№02-00175)
filologiya, tarix, pedagogika fanlari
bo'yicha PhD va DSc ilmiy
darajasiga talabgorlarning
dissertatsiya ishlari yuzasidan ilmiy
nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Mas'ul kotib:

Yoqubova Sevara Baxtiyorovna

Muharrir:

O'razbayeva Mahbuba
Qadambayevna

Sahifalovchi:

Sultonov Alisher Xayrullayevich

Manzilimiz:

Toshkent shahar, Chilonzor
tumani, Bunyodkor ko'chasi 27-uy
@-mail: tdpuia@mail.ru

Tahrir hay'ati:

Abdullayeva Barno
Sayfutdinovna
Abdazimov Aziz Abdusabirovich
Asqarov Axmadali
Azimov Inomjon
Mamasodiqovich
Axmedova Nodira
Muxtorjonovna
Atabaeva Nargis
Atabayeva Go'zal Farxodovna
Burxanova Feruza
Abdurazakovna
Djamilova Nargiza Nuritdinovna
Ergashev Dilshod Unarovich
Egamova Shoxida Djalilovna-
Ikramxonova Firuza Ikromovna
Isyanov Ravil Gennadiyevich
Isakulova Nilufar Janikulovna
Ismutallaev Farxodjon
Odiljonovich
Kamilova Nodira Gayratovna
Kahramonov Kurdosh
Jalgashovich
Mamarajabova Zulfiya
Narbayevna
Mamarajabov Mirsalim
Elmurodovich
Masharipova Umida
Abduvahobovna
Mirkasimova Marguba
Mirkabilovna
Muslimov Narzullo Alixanovich

Tahrir hay'ati:

Nishanova Zamira
Tasarayevna
Normurodova Nigora
Abdusattarovna
Nuriddinov Erkin Zuhridinov
Nurullayev Muzaffar
Eshnazarovich
Orlova Tatyana Aliksiyeva
Omonova Mubora
Abdurazakovna
Pulatova Durdona
Ravshanovna
Qalandarova Dilafruz
Abdujamilovna
Qodirova Mashxura Nosirovna
Rashidova Umida Mansurovna
Saidov Azamat Ismailovich
Sadiyev Valijon Alijonovich
Selami Fedakar (*Turkiya*)
Tursunmetov Komiljon
Tanieva Guldona
Turaev Samad Rasulovich
Umarov Bahriddin
Mingboyevich
Xalikov A'zam
Abdusalomovich
Xoliqov Sarvar Mingishovich
Yilmaz Özkaya (*Turkiya*)

MUNDARIJA

Mamatov N. TALABALAR ILMIY-TADQIQOT ISHLARINI TASHKIL QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USULLARI VA VOSITALARI	7-13
Xalikov A.A. KASBIY REFLEKSIYADA PEDAGOGIK TASHXISLASHNING ZARURIYATI	14-22
Muxtarov F. M. AXBOROTLAR XURUJI DAVRIDA “KIBERXAVFSIZLIK” FANINI O‘QITISHNING DASTURIY-METODIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISHDA KOMPYUTER TIZIMINING AXBOROTLASHUV ASOSI	23-30
Avazova D. E. DARS JARAYONLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN UNUMLI FOYDALANISH METODIKASI	31-37
Aliyeva M. A. BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING EKOLOGIK TARBIYASINI EKSKURSIYA VOSITASIDA SHAKLLANTIRISH	38-47
Begmatova L. INGLIZ TILI AMALIY MASHG‘ULOTLARIDA INTERFAOL O‘QITISH USULLARI ORQALI KREATIV NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH	48-56
Nazarova F.A –AKADEMIK LITSEYLARDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TARBIYAVIY TEXNOLOGIYALAR KOMPONENTLARI, ULARNI LOYIHALASHTIRISH XUSUSIYATLARI	57-62
Нематова Г. А. РОЛЬ НЕВЕРБАЛЬНОГО ОБЩЕНИЯ В РАЗВИТИИ УСТНОЙ РЕЧИ ИЗУЧАЮЩИХ ФРАНЦУЗСКИЙ ЯЗЫК	63-67
Omonova N.R. BO‘LAJAK MUHANDISLARDAGI KREATIVLIK QOBILIYATLARNI NAMOYON BO‘LISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	69-84
Pardaev B.O‘. SHAXS IJTIMOIYLASHUVIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARLAR XUSUSIDA	85-92
Isamov S.M. FUQARO MUHOFAZASI BO‘LIMINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	93-97
Iskandarov F.M. ME’ROJ NA’TLARDA DINIY-TASAVVUFIY MAZMUN VA BADIYYAT	98-117

Yuldashev S.R. CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANINING O'QITISHDAGI MAQSAD VA VAZIFALARI	118-127
Formanova Sh.B. BO'LAJAK KIMYO O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASINI KONTEKSTLI TOPSHIRIQLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	128-134
Mambetova L. M. O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHAGA ASOSLANGAN O'QITISH USULIDAN FOYDALANISH	135-138
Muydinjonov D.R TALABALARINING IJTIMOIIY-AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TIZIMLI YONDASHUVDAN FOYDALANISH	139-147
Muydinjonov Z.R. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARNING RAQAMLI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY VA PEDAGOGIK SHAROITLARI	148-156
Muydinjonov D.R. TALABALARNING IJTIMOIIY-AXBOROT KOMPETENTLILIGINI KOMPETENSIYAVIIY YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	157-165
Kodirova M.M. "MATERIKLAR VA OKEANLAR TABIIY GEOGRAFIYASI" FANINI O'QITISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK TA'MINOTI	166-177
Sariyev Sh.U. BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BADIY MATN USTIDA ISHLASH ORQALI NUTQ O'STIRISH	178-184
Rustamova Z.X. ELEKTRON KORPUSDA QIDIRUV TIZIMI IMKONIYATLARI	185-191
Tangatov B. BO'LAJAK MUHANDIS-QURUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH SHAKL, METOD VA VOSITALARI	192-204
Teshaboyev A.I. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLARNING MA'NAVIY-AHLOQIIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH	205-209
Qalandarov H. K. TA'LIM JARAYONIDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHALTLARI	210-214

Qo‘qonboyeva Sh.R. UMUMIY O‘RTA TA‘LIM TIZIMIDA “TABIIY FANLAR”NI O‘QITISHDA FANLARARO BOG‘LIQNI TASHKIL ETISH MASALALARI.	215-224
Xidoyatova Sh. VIRTUAL HAQIQAT VA INGLIZ TILINI O‘RGANISH: BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHDA SUN‘IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH	225-229
Мирзаматова Ш. Т. РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ХИМИИ	230-239
Hamrayeva O. F. TALABALARDA IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.	240-247
Shukurov Yo.A. O‘QUV MAQSADLARINI IFODALASHDA BLUM TOKSIONOMIYASINING AHAMIYATI	248-254
Xayitmuradova Sh.M. APPLYING INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING/LEARNING FOREIGN LANGUAGES	255-261
Мухиддинова М.Б. ВЛИЯНИЕ РЕКЛАМНОГО ТЕКСТА НА ОБЩЕСТВО (НА МАТЕРИАЛЕ МОРФОЛОГИЧЕСКОГО АНАЛИЗА МЕСТОИМЕНЯ)	262-275
Mamadaliev A. M. BRIDGING CULTURES THROUGH TEXTS: A COMPARATIVE EXPLORATION OF WILLIAM SHAKESPEARE AND ALISHER NAVOI'S WORKS	276-290
Umurzoqova M.E. MUALLIF LISONIY SHAXSI VA UNING TADQIQI XUSUSIDA	291-299
Madayeva M. ALISHER NAVOIY “SAB‘AI SAYYOR” DOSTONIDAGI BADIY SAN‘ATLARDA ARABIZM O‘RNI	300-305
Kaypnazarova M.K. DESIGNING INDEPENDENT WORKS IN TEACHING KARAKALPAK DIALECTOLOGY	306-310-
Madayeva M. O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA DOSTON JANRINING USLUBIY SHAKLLANISHIDA "SAB‘AI SAYYOR" DOSTONINING O‘RNI	311-315

ME'ROJ NA'TLARDA DINIY-TASAVVUFIY MAZMUN VA BADIYYAT

Iskandarov F.M.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-pochta: mfayzullaiskandarov@gmail.com

ORCID ID : 0000000204540229

Tel (90) 355-54-27

Annotatsiya. Ming yillik adabiyotimiz tarixini o'rganar ekanmiz, uning tadrijiy takomilini Qur'oni karim, hadislar, tasavvuf falsafasi, komil inson masalasi, islomiy ma'rifat hamda musulmon odob-axloqisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa, Islom ma'rifati bilan sug'orilgan sharq xalqlari ma'naviyatida bu ta'sirni yaqqol sezamiz. Inson qalbi, ruhi va tuyg'ularining tarjimoni bo'lgan badiiy adabiyotda bu masala yanada yorqinroq namoyon bo'lgan. Sababi mazmun-mohiyatini islomiy ma'rifat, manbasini nabaviy hikmatlar tashkil etadigan mumtoz adabiyotning bosh maqsadi – Komil inson masalasidir. Payg'ambar siymosi, u zot bilan bog'liq voqea-hodisalarning vasfiy bayoni ijodkorlar uchun komil inson haqidagi qarashlarini bayon etishda ilxombaxsh mavzuga aylandi.

Ana shunday mavzulardan biri – Me'rojdir. Me'roj payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallomga Allah tomonidan berilgan buyuk mo'jiza bo'lib, boshqa bironta payg'ambarga nasib etmagan buyuk maqomdir. Ayni shu jihati bilan ham me'roj voqeasi shoirlarning o'ziga rom qilib, birinchidan, ijodkorlar nabiy madhi, uning buyukligi, yuksak sharafi va ulug' maqomi ta'rifini keltirish shoirlik burchi va ummatlik vazifasi bo'lsa, ikkinchidan, ijodkorlarning diniy-tasavvufiy, falsafiy, adabiy-estetik qarashlarini ifodalashda muhim o'rin tutgan na'tlarni o'rganish ijodkorlarning Alloh, olam va odam haqida qarashlari, tiriklik mohiyati va olamning poetik idrok etishdagi bilim hamda tasavvurlarini baholashda katta ahamiyatga ega. Alisher Navoiy ham o'zining har bir asarida nabiy madhi, vasfi va Ul zot bilan bog'liq

tarixiy voqea-hodisalar, jumladan, me'rojga alohida o'rin ajratib, ushbu ilohiy voqeani maxsus badiiy tadqiq etadi.

Kalit so'zlar: na't, me'roj, nabi, tun, buroq, yulduz, oy, samo, quyosh, burjlar, sayyoralar.

Аннотация. Когда мы изучаем историю нашей тысячелетней литературы, ее постепенное совершенствование невозможно представить без Священного Корана, хадисов, философии суфизма, проблемы совершенного человека, исламского просвещения и мусульманской морали. Мы отчетливо чувствуем это влияние, особенно в духовности народов Востока, проникнутых исламским просвещением. Более ярко этот вопрос проявляется в *художественной литературе, которая является переводчиком человеческого сердца, души и чувств*. Причина в том, что главной целью классической литературы, содержанием и сутью которой является исламское просвещение, а источником является мудрость Набави, является проблема Совершенного Человека. Образ пророка и описание связанных с ним событий стали для художников вдохновляющей темой для выражения своего видения идеального человека.

Одной из таких тем является Миладж. Миладж – это великое чудо, данное Богом нашему пророку Мухаммеду, да благословит его Бог и дарует ему мир, и это великий статус, которого не было дано ни одному другому пророку. С этой точки зрения событие Миладжа увлекло поэтов, во-первых, долг поэта и общины - описать восхваление Пророка, его величие, высокую честь и великий статус, а во-вторых, религиозно-мистическую, философскую, литературный - изучение элементов, играющих важную роль в выражении эстетических взглядов, имеет большое значение в оценке воззрений творцов о Боге, мире и человеке, сущности жизни и познании и воображении поэтического восприятия. мира. В каждом своем произведении Алишер Навои отводит особое место восхвалению Пророка, его атрибутов и исторических событий, связанных с Его Святейшеством, в том

числе Миладжа, и делает особое художественное исследование этого божественного события.

Ключевые слова: наът мирадж, пророк, ночь, бурак, звезда, луна, небо, солнце, созвездия, планеты.

Annotation. When we study the history of our thousand-year literature, its gradual improvement cannot be imagined without the Holy Koran, hadiths, Sufism philosophy, the problem of being perfect human, Islamic enlightenment and Muslim ethics. We can clearly feel this influence especially in the spirituality of the peoples of the East, who were infused with Islamic enlightenment. This issue is more vividly manifested in fiction, which is the translator of the human heart, soul and feelings. The reason is that the main goal of classical literature, whose content and essence is Islamic enlightenment, and whose source is Nabawi wisdom, is the issue of the Perfect human. The image of the prophet and the description of the events related to him became an inspiring topic for artists to express their vision of a perfect person.

One such topic is Mi'raj. Mi'raj is a great miracle given by God to our prophet Muhammad, may God bless him and grant him peace, and it is a great status that no other prophet has been given. From this point of view, the event of Miraj captivated the poets, firstly, it is the poet's duty and duty of the community to describe the Prophet's praise, his greatness, high honor and great status, and secondly, the religious-mystical, philosophical, literary - the study of the elements that play an important role in the expression of aesthetic views is of great importance in evaluating the views of creators about God, the world and man, the essence of life and the knowledge and imagination of the poetic perception of the world. In each of his works, Alisher Navoi makes a special artistic study of this divine event, giving a special place to the praise of the Prophet, his attributes, and historical events related to His Holiness, including the Mi'raj.

Key words: *naat Mi'raj, prophet, night, spring, star, moon, sky, sun, constellations, planets.*

Kirish. Me’roj “Navoiy – Foniyning alohida sevgan mavzusidir. Chunki Navoiy ham, boshqa so’fiy yoki mutasavvuf shoirlar ham Payg’ambar Me’rojida tasavvuf g’oyalari yaqin narsani va so’fiylarning ruh uruji (ko’tarilish), tariqat maqomlarini egallab, Parvardigor huzuriga musharrafbo’lish g’oyasining isbotini ko’radilar. Shu bois Me’roj kechasi Rasuli Akramning koinot bo’ylab sayri, Buroq otida Jabroil alayhissalom jilovdorligidayetti qavat osmondan oshishi va Arshga yaqinlashib, Olloh bilansuhbatlashishi katta zavq-u shavq, qaynoq ilhom bilan tasvirlanadi. Bu tabiiy, chunki ushbu mavzu o’z xususiyati va mohiyati bilan shoironadir”[10;21]. Ana shunday shoirona romantikaga boy misralar “Xamsa” dostonlarining dastlabki debocha qismidagi me’rojga bag’ishlangan boblarda uchraydi.

Adabiyotlar sharhi. Navoiyshunoslikda “Xamsa”dagi na’tlarga Navoiyning muayyan masaladagi qarashlarini ko’rsatish, asoslash, mahoratini belgilash, qiyoslash hamda matniy manbalar va boshqa maqsadlar sabab ko’plab olimlarimiz tomonidan murojaat qilingan. Jumladan, R.Vohidovning “Navoiy va ilohiyot” monografiyasida “Hayrat ul-abror”dagi na’tlar badiiyati tadqiq etilgan bo’lsa, N.Komilov “Sittai zaruriya” tahlili va sharhiga bag’ishlangan tadqiqotlarida me’rojning tasavvufiy mazmuniga alohida e’tibor qaratgan. I.Haqqul, Z.G’afforova ushbu masalani shoir lirik merosi misolida o’rgansa, navoiyshunos K.Mullaxo’jayeva o’z tadqiqotlarida na’t g’azallarni tasavvufiy mazmun va badiiy san’atlar uyg’unligida o’rgangan. M.Muhiddinov Navoiyning komil inson haqidagi qarashlarini Xusrav Dehlaviy va Navoiy “Xamsa”larini birinchi dostonlari asosida, I.Ismolov Nizomiy va Navoiy iskandarnomalarini qiyosiy o’rganish asnosida me’roj na’tlarga murojaat qilgan bo’lsa, O.Davlatov Qur’on oyatlari va hadislarining badiiy talqinini tadqiq etish jarayonida bu masalaga e’tiborini qaratgan.

Mazmuni. Me’roj mavzusini yoritishda tarixiy-qiyosiy, germenevtik, tarixiy-madaniy metodlar hamda sharhlash va tavsiflash usullaridan foydalanildi. R.Vohidov, N.Komilov, I.Haqqul, K.Mullaxo’jayeva kabi navoiyshunos olimlarimizning ilmiy-nazariy fikrlariga tayanildi.

Tahlil va natijalar. “Hayrat ul-abror” dostonidagi me’rojga bag’ishlangan me’roj bobni qorong‘u kecha tasviri bilan boshlagan shoir kitobxonni **qorong‘u kecha** go‘zalligi madhi bilan rom etadi. Samo ahlining bo‘lajak uchrashuvga o‘ziga xos tayyorgarligi, butun koinot jismlarini bazm qatnashchilaridek yasanishi, atrofni shod-u xurramlik nashidasi tutgani tasvirlanadi. Betakror kecha tasviri manzarasi asta-sekin kitobxonni ilohiy uchrashuv – “Haqqa yovuqlashish”, “Alloh bilan muloqotda bo‘lish”, “Fanolik va baqolikka yetishishning namunaviy ko‘rinishi”[14;604] ni amaliy qismi bo‘lgan, nabiyning eng buyuk mo‘jizalaridan bo‘lgan – Me’roj sari yetaklaydi. Voqealar ketma-ketligiga kitobxonni puxta tayyorlagan shoir, kecha tasviri va “samo ahli” tavsifidan so‘ng, o‘quvchi diqqat-e’tiborini o‘z izmiga bo‘ysundirib, komillar komili – Nabi alayhissalomning yaqinlashib kelayotgan uchrashuv oldi hayajoni tasviriga o‘tadi:

Vasl xayolidin etib ko‘ngli jo‘sh,

Bahrdek ul jo‘sh ila aylab xurush[3;35].

Ko‘ngilning vasl xayoli bilan band bo‘lib, dengizdek jo‘sh urib hayqirgan paytdagi holati keyingi dostonlarda shunday keladi:

“Farhod va Shirin” dostonida:

Bu aqshom ul charog‘i olamafro‘z,
Ichinda vasl sham‘i o‘tidan so‘z.
Solib bir go‘shada partav nihoniy,
Kim, aylab mizbonlig‘ Ummahoniy[4;15].

“Layli va Majnun” dostonida:

Bir xobgahi nihoni ichra,
Manzilgahi Ummahoniy ichra.
Bor ishdin etib o‘zini ma‘zul,
Mahbub xayoli birla mashg‘ul[5;16].

“Sab‘ai sayyor” dostonida:

Yuz tuman sabzpo‘shi ruhoniy,
Zohir aylab falak shabistoni.
Bo‘yla tun ul mahi muniri jahon,
Ummahoniy uyida erdi nihon.
Dahr sho‘ri sharidin osuda,
Ko‘ngli uyg‘og‘u ko‘zi uyquda[6;16-17].

“Saddi Iskandariy” dostonida:

Quyoshdek ulusdin nihoniy bo‘lub,
Yeri hujrai Ummahoniy bo‘lub[7;18].

“Lison ut-tayr” dostonida:

Ul kechakim, ul shahi gardun maqom,
Kim oni Haq istadi gardunxirom.
Ummahoniy hujrasida erdi xush,
Dahri dun ashg‘olidin osudavash[8;15].

Yuqoridagi misralarda shoir, dastlab, beshlikning birinchi dostonida nabiyning me‘roj oldi ruhiy holati tasvirini bersa, keyingi dostonlarda voqea o‘rni va qatnashchilari hamda undan keyingi voqealar tasviriga o‘tadi. Yorga intizorlik va u bilan uchrashishni mushtozlik bilan kutgan oshiq – “Ummahoniy hujrasida” “ulusdin

nihoniy bo‘lub”, “dahri dun ashg‘olidin osudavash” bo‘lub, “mizbonlig‘ aylab”, “ko‘ngli uyg‘og‘u ko‘zi uyquda” “mahbub xayoli birla” xush bo‘lganligi tasviri keladi. “Muhaddislarning rivoyat qilishlaricha, Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallam xufton namozidan so‘ng Ummu Xoni” bintu Abu Tolibning uyida yotganlarida Isro hodisasi boshlandi. O‘sha kecha Buroq nomli hayvonga minib, Bayt ul-Maqdisga bordilar. So‘ngra u yerdagi katta xarsangtosh ustida turganlarida Me‘rojga ko‘tarildilar”[15;185]. Me‘rojga oid ba‘zi manbalarda Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi va sallamni o‘sha tunda “Oltin tarnov”ning osti, Ka‘ba orqasi – Hatimda yonboshlab yotganligi aytiladi[1;93].

Kim etib ul soyiri ulviy maqom,

Ilgida bir toyiri ulviy xirom.

Po‘yadi ko‘k sayricha orom anga,

Yerdin o‘lub ko‘kkacha bir gom anga[3;35].

“Hayrat ul-abror” dostonidagi yuqoridagi tasvirlardan so‘ng Jabroilning ilohiy mujdani yetkazishi va Buroq haqidagi tasvirlarga o‘tiladi. Ayni shu tasvirlarga oid dastlabki fikr-qarashlar dostonidan-dostonga rivojlantirilib, yangi-yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirib boriladi. Har bir dostonida tarixiy haqiqatdan uzoqlashmagan badiiyat, yanada yorqinroq va aniq tasvirlar bilan boyitilgan navoiyona nazokat namoyon bo‘ladi, voqealar izchillikda yuksalib boraveradi. Yana bir bor Qosidi qudsiyning Haqdan salom yetkazishi hamda Buroq tasvirida nihoyatda nozik va ehtiyotkorlik bilan qo‘llangan mubolag‘ali tashbehlarga guvoh bo‘lamiz (jadvalda ko‘rsatiladi).

1-jadval.

№	Doston nomi	Jabroil ta’rifi	Buroq tasviri	Haqning mujdasi
1.	“Hayrat ul-abror” da	Po‘yadi ko‘k sayricha orom anga, Yerdin o‘lub ko‘kkacha bir gom anga.	Soyir o‘lub rokibi farruhjamol, Toyir o‘lub markabi farxundafol. Gardi bila borayi sur’atnoma,	Debkim, ayo maxzani asrori shavq, Haqdin erur vaslingga izhori shavq.

		Qosidi qudsiy salom aylabon, Haq soridin arzi payom aylabon.	Yetkurubon aql ko‘ziga amo.	
2.	“Farhod va Shirin” da	Ki, yetti ul baridi homili roz, Qo‘linda bir Buroqi barqparvoz.	Biri payki nazardin tezdavroq, Biri raxshi gumondin garmravroq.	Ki: “Yetsun olam ahlidin nihoni, Muhib sarvaqtig‘a mahbubi joni”.
3.	“Layli va Majnun” da	Kim yetti baridi nurbaxshi, Hamroh anga mahz nur raxshi.. Chun yetti ravandayi samoviy, Ul mehri samog‘a bo‘ldi roviy.	Bu raxshki barqi garmravdur, Yo‘q-yo‘qki, buroqi barqdavdur. Xilqat aro nurdan sirishti, Ne nur, farishtai bihishti. Yo‘q jismig‘a kimsa xamlidin dard, Ne kimsaki, anda ko‘rmayin gard.	Kim, vaslingga haqdur orzumand, Bo‘l sen dog‘i vaslidan barumand.
4.	“Sab‘ai sayyor” da	Kim, yetib qosidi jahonpaymo, Ilgida raxshi osmonpaymo.	Surdi chun rokibi humoyun fol, Ostida markabi humoyun bol. Tufrog‘u suv yuzidin aylab xez, O‘tti o‘t, yelidin o‘tu yeldek tez. Markabi urdi oy yuziga tuvog‘, O‘ylakim, qoldi jabhasi uza dog‘.	Haq salomin chu topti mahbubi, Bo‘ldi oshiq visoli matlubi.
5.	“Saddi Iskandariy” da	Demay barqkim, toyiri barqsayr, Qo‘lida bir ul nav‘kim barqtayr. Biri Arsh ayvonining toyiri,	Buroqi sabuksayri qudsiy sirisht, Bo‘lub jilvagohi riyozi bihisht. Falak sayridin tez orom anga,	Ki, hijron bisotin tay etmak kerak, Qo‘pub Haq visolig‘a yetmak kerak.

		Biri xuld bo‘stonining soyiri... Kelib hosilan Jabraili amin, Yetib turfa tovusi xuldi barin.	Ming illik falak sayri bir gom anga.	
6.	“Lison ut-tayr” da	Kim yetishti ollig‘a Ruhul amin, Arz etib payg‘omi robbil olamin.	Ilkida erdi Buroqi barqxez, Barq oning birla qila olmay sitez.	Dedikim, ey Tengriga joning qarib, Jism ila ham bo‘l, erursen chun habib. Rokib o‘lkim, kelturubturmen Buroq, Gardi rohing ayla bu firuza toq.

An’naviy takrorlardan qochgan shoir har bir dostonida Jabroil alayhissalomni “Soyiri ulviy maqom”, “Qosidi qudsiy”(“Hayrat ul-abror”), “Baridi homili roz”(“Farhod va Shirin”), “Baridi nur baxshi”(“Layli va Majnun”), “Qosidi jahonpaymo”(“Sab’ai sayyor”), “Arsh ayvonining toiri” va “Jabroili amin”(“Saddi Iskandariy”), Ruh ul-amin, “payk”(“Lison ut-tayr”) kabi yangi-yangi sifatleri bilan nomlaydi. Me’roj voqeasining asosiy qahramonlaridan biri – Buroq dostonlarda “toiri ulviy xirom”, “raxsh”, “markabi farxundafol”, “borai sur’atnamo”, “rahrav”, “tavsan” (“Hayrat ul-abror”), “Buroqi barqparvoz”, “garmrav”, “raxshi novard” (“Farhod va Shirin”), “mahzi nur raxshi”, “barqi garmrav”, “Buroqi barvdav”, “markab” (“Layli va Majnun”), “raxshi osmonpaymo”, “markabi humoyun bol” (“Sab’ai sayyor”), “barqtayr”, “xuld bo‘stonining soyiri”, “Buroqi sabuk sayri qudsiy sirisht” (“Saddi Iskandariy”), “Buroqi barqxez”, “markab” (“Lison ut-tayr”) kabi obrazli ibora va tavsifiy nomlar bilan keladi.

Buroq haqida islomiy manbalarda kelgan xabarlarga ko‘ra, “buroq” arabcha “chaqnash”, “yalt etish”, “jilvalanish” ma’nolarini bildiruvchi “barq” so‘zidan yasalgan[13;161]. Buroq oti “xachirdan kichikroq, eshakdin cho‘ngroq” bo‘lib “jannatdin keltirilgan edi”[1;93]. Qur’oni karimda zikr qilinishicha (17:1), Muhammad sollallohu alayhi va sallam uni minib Makka shahridan “tungi sayr”da dastlab Quddusga, so‘ngra me’rojga chiqqanlar. Nabiy alayhissalomni Ka’ba oldiga kelib kutib turgan Buroq, avvaliga sarkashlik qilgan, hazrat Jabroil majbur etgandan so‘ng bo‘ysungan. Buroq boshqa payg‘ambarlar, chunonchi Ibrohim alayhissalom va Dovud alayhissalomga ham xizmat qilgan, deydilar. Buroq diniy manbalarda goh ot, goho xachir shaklida ifodalangan, oq rangli, bo‘yni cho‘ziq, quloqlari uzun, oyoqlarida qanoti bo‘lgan, - deb ta’riflangan¹⁴. Shuningdek, “payki nazardin tezdavroq” (xayoldan tez chopadigan), “raxshi gumondin garmravroq” (gumondan ham tez yuguradigan) bo‘lgan Buroq – pok nurdan yaratilgan maxluq, u nigohi tushgan joygacha qadam tashlay oladigan darajada uchqur bo‘lgan. Navoiyshunos olim I.Haqqulov ta’kidlaganidek, “tasavvuf ahli uchun Buroqning sanoqsizligi qat’iy ishonchga aylangan. Va bu obraz moddiy olamdan ma’no olamiga o‘tish vositasi sifatida xarakterlanadi”[16;258].

Voqealar rivojidadagi navbat samo ahli – sayyoralar, yetti qavat osmon va burjlar ta’rifu tavsifi bilan davom ettiriladi. “Navoiy osmon jismlarining intizorligini bayon etishdan oldin Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning o‘z ichki kechinmalari – Tangri bilan muloqat mujdasidan yuragi beorom, joni ichiga sig‘may quvonishini ko‘rsatgan:

Chunki nabiy mujdai jonon topib,
Mujdai jonon chu topib, jon topib.
Payki oni qo‘ldabon otlandurub,
Raxshini kelgan sori – o‘q yondurub”[12;47].

¹⁴ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/buroq-uz/>

Koinot sarvarining Buroq otida oliy maqom sari Jabroil hamrohligida yo'lga chiqishi, samo sayrining tasvirlari bilan bog'liq o'rinlarda shoirning samoviy jarayonlarni muayyan astronomik qonuniyatlarga muvofiq, mantiqqa mos tasavvur qilishga intilganidan falakiyot ilmiga oid bilimlarini ham mukammal egallaganligiga guvoh bo'lamiz. Ma'lumki, o'z vaqtida Alisher Navoiy Samarqandda Ulug'bek rasadxonasi yaqinida joylashgan Fazlulloh Abullays madrasasida ta'lim olgan edi. O'sha yillari u Ulug'bek madrasasida ham bo'lgan, albatta. Buni shoirning "Farhod va Shirin" dostonida Ulug'bekka, uning rasadxonasiga, "Zij" asariga bag'ishlangan she'riy satrlaridagi aniq bayonlardan ham bilsa bo'ladi[8;17]. Shuning uchun ham, bimalol aytish mumkinki, "Ulug'bek ilmiy maktabi, aniqrog'i, Samarqand va Hirot astronomik muhiti Alisher Navoiy kosmik dunyoqarashi shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi va bu uning ijodida o'z aksini topdi"[8;3].

Sarvari koinot samo sari ilgarilarkan, bir yonlarida Jabroil alayhissalom, taglarida Buroq bilan yetti qavat osmonni birma-bir bosib o'tdi. Bu yo'lda tuynuk vazifasini bajargan Oy birinchi osmonda, Tiyr qalamzan – Atorud ikkinchi qavatda, uchinchi osmonda Zuhra, Quyosh to'rtinchi osmonda, beshinchi osmon Bahrom amrida, oltinchi osmon Mushtariy rahbarligida, Yettinchi osmon Zuhal boshchiligida "Ul shahi gardunmaqom"ni katta xursandchilik bilan kutib oldilar:

Chun yetibon ko'k sori tavsan anga,
 Oy bo'libon o'tgali ravzan anga.
 Tiyra qalamzan chu topib ul sharaf,
 Buqalamunlug'ni qilib bartaraf.
 Zuhra tarab barbatini noz etib,
 Zamzamai tahniyat og'oz etib...
 Mehrida Bahromki yakro' bo'lub,
 Tig'i sharaf yuziga ko'zgu bo'lib.
 Mavkibidin poya topib Mushtariy
 Yo'lida bir bo'lib minbari...

Sham'i Zuhul zulmatini nur etib

Zangiyo shabrangni kofur etib[3;36].

Sakkizinchi osmon tasviri haqida beshlikning “Farhod va Shirin”, “Sab’al sayyor” va “Saddi Iskandariy” dostonlarida alohida to’xtalsa, “Hayrat ul-abror” hamda “Layli va Majnun” dostonlarida bu osmon tasviridagi baytlarni uchratmaymiz.

Navoiy o‘zining barcha dostonlaridagi me’roj boblarning ushbu qismlarida, avvalo, Me’roj kechasining tasviri, samoning Rasululloh yo‘lga chiqqunlarigacha va undan keyingi holati, koinot jismlari, sayyora-yu burjlar, oy, quyosh, yer-u osmonni batafsil tasvirlaydi. Samo ahlining ushbu fayzli kechani intizorlik bilan kutayotgani, “Alloh habibining tashrifidan junbushga kelgan va xuddi jonli olamday bu hodisadan sarafruz”[11;213] ekanligini keng yoritadi.

2-jadval.

№	Dostonlar	Sayyoralar tasviri
1	“Hayrat ul-abror” dostonida	Ul zotning tashrifi sabab Oy tuynuk bo‘lsa, Tiyr qalamzan buqalamunlikni tashlab, Haqda qotti. Zuhra ohista kuy bilan tabriklasa, Mehr jamolin yashirdi. Bahrom birso‘z bo‘lib, sharaf tig‘iga ko‘zgu bo‘ldi. Mushtariy zina bo‘lsa, Zuhra yo‘llarini yorituvchi sham bo‘ldi.
2	“Farhod va Shirin” dostonida	Ul zotning oti Qamarga yetarkan, uning yuzini yanada ravshan qildi. Atorud bu otni ko‘rishdan xursand bo‘lsa, uning dag‘dag‘asi Zuhrani sozidan ayirib, Quyoshni uyaltirib yerga kirgizdi. Bahrom sari yurarkan, Nahsi ag‘ar (xosiyatsiz kichik yulduz) Sa‘di akbar (xosiyatli yulduz)ga aylanib, yo‘lovchini Mushtariy sari yo‘llaydi. Yettinchi qo‘rg‘on posboni qolib, sakkizinchi gumbaz ostiga kirdi.

3	“Layli va Majnun” dostonida	Ul zotning siymosini ko‘rgan Oy quyoshning minnatli ziyosidan voz kechdi. Munshiy xatini qarosini kayvon yulduziga sochsa, Zuhra yo‘lida cholg‘uchi bo‘ldi. Quyosh libosi zarbaft-nurli bo‘ldi. Bahrom qilichin tashlab, uzangisin o‘pti. Birjisqa undan saodat topdi. Zuhal bu otliqqa soislikka chog‘landi.
4	“Sab‘ai sayyor” dostonida	U kechada tulpor shu qadar tez uchganidan, Oy yuzida dog‘ bo‘lib, Atorud ning qalami sindi. Ohangidan qo‘rqib Zuhra changini berkitsa, ul yulduzning ulug‘vorligidan Quyosh xijolat bo‘lub yerga kirib ketdi. Uning savlatini ko‘rib Bahrom qilichiga dam bergani qiniga solsa, Mushtariy minbaridan tushdi. Zuhal asboblarin hindudek yoydi.
5	“Saddi Iskandariy” dostonida	Tun tulpori butun anjomi bilan ko‘kka ko‘tarilarkan, Qamar bekatini nurlari bilan charog‘on qilib, Atorud ning qalamini sindirib, ilmga mashg‘ul qildi. Zuhra aytayotgan qo‘shig‘ini to‘xtatib, sozini berkitib yo‘lni bo‘shatdi. Tun qorong‘uligini yorita olmay uyatdan yerga botgan Quyosh ni malomatlar qildi. Beshinchi falakka yetib, Bahrom ni yengdi, ayovsiz xalqning qonini to‘kmasligi uchun qilichini qinga soldirdi. Oltinchi osmon egasi Mushtariy uning nomini xutbaga qo‘shib o‘qib, hukmdorligini e‘lon qildi. Zuhal uning saodatidan bahramand bo‘ldi. Barcha yomonliklari yo‘qolib, tole’ unga yor bo‘ldi.
6	“Lison ut-tayr” dostonida	Ul zot Oy ning yonidan o‘tganida Oy badr (to‘linoy)ga aylandi. Atorud qalami durlar sochar, Zuhra anga ashkin ochar. Yulduzlar shohi Quyosh o‘ziga undan nur oldi. Beshinchi osmonga yetarkan, Nahsi ag‘ar (xosiyatsiz kichik yulduz) Sa‘di akbar (xosiyatli yulduz)ga aylandi. Sa‘di akbar tomon yurganda, u ham saodat nuridan bahra oldi. Bechora hindu (Zuhal)ni qo‘rib “Allohning nuri” dedi. Yana ikki vodiy sayr etgach, sakkizinchi

	osmon ko‘rindi. (Shoir keyingi 3 sayyoraning nomini aniq keltirmagan, ularning ta’rifi bilan cheklangan.)
--	---

“Xamsa”ning har bir dostonida “payg‘ambarning yetti falakdan o‘tib borishi tasvirida o‘ziga xoslik namoyon qilgan. Oy, Atorud, Zuhra, Quyosh, Mirrix, Mushtariy, Zuhul va o‘n ikki burj payg‘ambardan fayz topib, uning kelganidan sururlanadi, o‘z navbatida, uning qarshisida xijolatda qoladi. Navoiyning bu tasvirlardagi asosiy maqsadi payg‘ambarning sayyid ul-mursalin ekanini ta’kidlash, shu bois ijodkor tazod va tashxis san’atlariga tayanib, butun koinotni shaxslantiradi va ularning so‘zi-yu harakatlarini asosiy maqsadga yo‘naltiradi”[9;56]. Ayni damda, ushbu tasvirlardan maqsad birinchidan, “g‘oyat original tashbih va istiora, iyhomlar bilan osmon jismlarini ta’rif etish; ikkinchitarafdin, osmon jismlari, yerdagi ashyolarni inson idrokiga, hayotga yaqinlashtirib, jonlantirib baytlar tuzish. Go‘yo samoviy jismlar ham obraz va ham moddiy mavjud ashyodek”[11;212] insonda taassurot qoldiradi.

Ilmi nujum fanidan bizga ma’lumki, barcha sayyoralar, yulduzlar turkumi yerning quyosh atrofidagi yo‘li bo‘ylab joylashgan. Yer o‘zining yillik harakati davomida ana shularning barchasini aylanib chiqadi. Natijada yerda fasllar, oylar va kecha-kunduzning doimiy ravishda almashinib turishi davom etadi. Ijodkor ana shu oylarning zimmasiga ham kecha tasviri bahonasida ulug‘ vazifani yuklaydi. Barchasi oliy maqomli sayyoh – Sarvari koinotning yo‘lida intizor, xizmatiga shay. Zuhul qorong‘ulikni yoritisa, Hamal bilan Savr jonini qurbon qilishga tayyor. Javzo, Saraton va Sher (Asad) bir bo‘lib, bir go‘shada xizmatga shay holda ko‘zini yo‘lga tikadi. Sunbula u zotning oti – Buroqqa ozuqa bo‘lsa, Palla uning yo‘lini o‘lchar edi. Aqrab davolash bilan band. Bu paytdan unumli foydalangan Qavs chillada o‘tirib duo qilishga sho‘ng‘igan. Jadiy esa uning roziligini olish bilan ovora. Ular shunday ovora bo‘lganida, Koinot sarvari Dalvga Yusuf kabi qaramay, Hutda Yunus kabi to‘xtamay bir zumda o‘tdi-ketdi.

3-jadval.

№	Dostonlar	Burjlar tasviri
1.	“Hayrat ul- abror” dostoni da	Tashrifga tashna Hamal bilan Savr ul zot yo‘lida o‘zini qurbon qilishga tayyor tursa, Javzo kamarin tortib bog‘lagan paytda, Saraton tik turib jilva qilardi. Sher bir yer tutib tursa, Sunbula otiga oziq bo‘ldi. Palla ul zot yo‘lini o‘lchasa, Aqrab davolash bilan band bo‘ldi. Qavs chillada o‘tirib duo qilsa, Jadi unga ozuqa keltirdi. Dalv ga Yusufdek nazar solmay, Hut da Yunusdek to‘xtamay o‘tib ketdi.
2.	“Farhod va Shirin” dostoni da	Hamal dan ketib Savrga borarkan, ikkisi bosh egib “qaniydi senga qurbon bo‘lsak” deb Ikki paykar qoshiga ta‘zim qildi. Necha quvvatlig‘ Harchandlar lol bo‘lib, hatto Sheri nar o‘zini chetga oldi. Chayon Xo‘sha xirmonining Kaffasi ostini makon qilganda, Yoy o‘zini qurbon qilsa, Jadi qurbonlik uchun shoxu payini muhayyo etdi. Dalv o‘zini jannat bulog‘i, Hut esa dengiz timsohi deb bildi.
3.	“Layli va Majnun ” dostoni da	Sarvari koinot ishqida Savr-u Hamal faryod chekib, jonini qurbon qilishga shaylanganda, Javzo ul zot yo‘liga ko‘zi to‘rt bo‘ldi, Saraton ham nazardan bahramand bo‘ldi. Sher ham uni yo‘lning bir chetidan kuzatsa, Xo‘sha otining ozig‘i bo‘lgisi keldi. Tarozi uning ortidan jon o‘lchovchi bo‘lsa, Aqrab undan tiriltiruvchi dori topdi. Uning qoshida xijolatdan o‘zini Yoy chetga olsa, echki uning qadami sharafidan Qo‘chqor bo‘ldi. Qo‘bqaning suvi obihayot bo‘lib, Hutga yangidan jon baxsh etti.
4.	“Sab‘ai sayyor”	Ul zotga o‘z makonidan joy taklif qilib, ortidan Hamal bilan Savr yig‘lab qoldi. Yo‘liga ko‘zi to‘rt bo‘lgan Javzo , tulporni Saratonga besh oyog‘lab uchganidan xayron qoldi. Ov ustasi Asad

	dostoni da	uning yo‘liga Sunbulani nisor etti. Mezon adolatli hukmidan Aqrabning zahri to‘kilib ketti. Qavs uning yo‘lida chillada o‘tirgan bo‘lsa, Jadi baland cho‘qqiga o‘z tikti. Dalv uning yo‘lida suv kechgan bo‘lsa, Hut suvsiz qolgan oy bo‘ldi.
5.	“Saddi Iskanda riy” dostoni da	Sakkizinchi samo sari yurib, o‘zining kelishidan xursand yulduzlarni ko‘rdi. Xursanchilikdan gulu nastarinlar sochdi. Hamal ul zotdek mehribonni ko‘rib, Musodek cho‘ponlikdan voz chekdi. Charx uyi xuddi Assordek atrofida sadoqat bilan aylanardi. Ikki paykar uning xizmatiga bel bog‘lab, qo‘lini ochib tursa, maqsadi hosil bo‘lgan Xarchang uning otiga g‘amxo‘rlik qilardi. Qari tulki sherni ko‘rsa qochganidek, Sher ham uni ko‘rib qochib qoldi. Xo‘sha donalar gavhar kabi, gavhar emas, yulduz kabi porlardi. Uning oyog‘i ostida Mezon ishini adolat bilan yurgizar, nish urmoqchi bo‘lgan Chayon o‘zini o‘zi tamom qildi. Uchi qoshga ishora qilganidek, Yoy qobi qavsayndek, xabar yetkazardi. O‘chkuning suti jonni shirasi kabi har bir donasi katta durri g‘altondek edi. Qo‘bqa yo‘liga suv sochar, suvi bo‘lmasa inju sochardi. Falak deb damidan tirilgan Hut “pokdur ul o‘lmaydigan doim tirik zotdir” deb sano aytardi.
6.	“Lison ut-tayr” dostoni da	Tungi suvoriy savlatidan Qo‘y bo‘ldi qo‘chqor, Savr esa asad dimog‘lik; Javzo uning xizmatiga kamar bog‘lasa, Saraton to‘g‘rilik mevasi bo‘ldi. Arslon it kabi oyog‘iga o‘zin tashlasa, Xo‘sha donolari dur bo‘ldi. Kaffa jon mezonini e‘lon qilganda, Chayon zahrini taryokka (zaharni kesuvchi dori)ga aylantirdi. Qoshining ishorasi Yoyni hilol qilganda, qadamining xosiyatidan Jadi – tog‘ echkisi zarrin g‘izol – kiyikka aylandi. Dalv nuqtasidan (hikmatidan) quvvat olib, Hut nutqidan (ilohiyotdan so‘zlovchidan) tiriklik topdi.

“Qadimda osmon jismlari – sayyoralar, yulduz turkumlari, burjlar turli xislat va xususiyatlarga ega deb qaralgan. Ular inson taqdiri hamda hayot hodisalari bilan vobasta qilib tushuntirilgan va ko‘pining nomi hayvonlarning nomi (qisqichbaqa, ho‘kiz, baliq kabi) yoki insonga kerak ashyo – asboblari (dalv, tarozi) yoki inson kasb-kori (kamon otuvchi kabi) bilan bog‘liq”[11;213]. Shoir ayni shu misrlarda ta’rif-u tavsifni kuchaytirib, ohorli misralardagi sermazmun baytlarda tilimiz jozibasini yana bir bor namoyon etadi:

Farridan topti **Qo‘zi** qo‘chqorlig‘,
Savrg‘a yetti Asadkirdog‘lig‘ (*Lison t-tayr*).
 Tarab aylab damo-dam **Ikki paykar**,
 Qo‘yarg‘a ollida boshin mukarrar.
 Topib quvvatlig‘ andog‘ necha **Xarchang**,
 Ki, tortib ranjasidin sheri nar chang (*Farhod va Shirin*).
Arslon itdek oyogig‘a tushub,
Xo‘sha tuxmi dur bo‘lurg‘a yovushub (*Lison ut-tayr*).
Palla yo‘li gardidin iksirsanj,
Aqrab aro no‘shu davo, nishu ranj (*Hayratul abror*).
 Bo‘lub qosh uchidin ishoratnamoy,
 Berib qoba qavsayndin mujda **Yoy**.
 Suti **O‘chkuning** shirai jon bo‘lub,
 Aning qatrasi durri g‘alton bo‘lub (*Saddi Iskandariy*).
Qubqa suyi obi zindagoniy,
 Ul suv bila toza **Hut** joni (*Layli va Majnun*).

Shoir burjlarni nomlashda turkiy tilning imkoniyatlaridan unumli foydalanadi, jumladan, Savrni Qo‘ziga, Javzoni Ikki paykarga o‘zgartirsa, Asad o‘rnida Arslonni qo‘llaydi. Mezonni Pallabilan, Aqrabni Chayon bilan almashtiradi. Qavsni Yoy, Jadini O‘chku, Dalvni Qo‘bqa deb ataydi.

4-jadval.

№	Hayrat ul-abror	Farhod va Shirin	Layli va Majnun	Sab'ai sayyor	Saddi Iskandariy	Lison ut-tayr
1.	Hamal	Hamal	Hamal	Hamal	Hamal	Qo'zi
2.	Savr	Savr	Savr	Savr	Assor	Savr
3.	Javzo	Ikki paykar	Javzo	Javzo	Iki paykar	Javzo
4.	Saraton	Xarchang	Saraton	Saraton	Xarchang	Saraton
5.	Sher	Sheri nar	Sher	Asad	Sher	Arslon
6.	Sunbula	Xo'sha	Xo'sha	Sunbula	Xo'sha	Xo'sha
7.	Palla	Kaffa	Tarozu	Mezon	Mezon	Kaffa
8.	Aqrab	Chayon	Aqrab	Aqrab	Chayon	Chayon
9.	Qavs	Yoy	Yoy	Qavs	Yoy	Yoy
10	Jadi	Jadi	Qo'chqor	Jadi	O'chku	Jadi
11.	Dalv	Dalv	Qo'bqa	Dalv	Qubqa	Dalv
12.	Hut	Hut	Hut	Hut	Hut	Hut

Koinot va uning yaratilishi bilan bog'liq qadim sharq folklorida uchraydigan miflardan, turk, fors va arab xalqlarining ilk kosmogonik tasavvurlari hamda turli manbalarda kelgan samoviy jismlar bilan bog'liq qarashlaridan xabardor bo'lgan Navoiy, burj va sayyoralarni poetik tasviri, obrazini yaratishda an'anaviy sharqona nomlash va tasavvurlardan mahorat bilan foydalanadi. Ayni paytda, me'roj boblarda qo'llangan tasvirlar, burjlarning nomlanishi va tavsifi bilan bog'liq o'rinlarda shoirning kosmogonik qarashlaridan, nujum ilmiga oid bilimlarning bilimdoni bo'lganidan xabardor bo'lamiz. Isro va Me'roj nabi alayhissalomga hayotining eng qiyin mahzunlik yillarida Yaratganning o'z habibini mahzunlikdan chiqishi, Olamlarga rahmat ekanligi, o'zi targ'ib qilayotgan ilohiy ta'limot orqali butun dunyoga Xotam ul-anbiyo bo'lib kelganliklarini e'lon qilish uchun berilgan buyuk

rabboniy mukofatdir. Ayniqsa, ummatlarining gunohlari uchun shifoatchi bo'lish imkonining berilishi nafaqat u zotni, balki barcha iymon ahlini nihoyatda xursand qildi. Bu xursandchilik asrlar davomida davom etib, shoirlarni me'rojdan ta'sirlanib go'zal she'rlar bitishga, Rasululloh sollalohu alayhi va sallamni madh etishga, u zotga bo'lgan muhabbatini ifodalash imkonini berdi. Ayni damda, shoirning KOMIL INSON haqidagi adabiy-estetik, diniy-tasavvufiy qarashlari islom asoslari bilan uyg'unligi me'rojlarda yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

Xulosa. Alisher Navoiy "Xamsa"dagi me'rojlarda bir tomondan, An'anaviy mavzuning so'fiyona talqinini va Payg'ambarimizning tungi sayri bilan bog'liq ilohiy hodisa bahonasida an'anaviy poetik tasvirlarni navoiyona uslub bilan boyitib, qorong'u kecha, yulduzlar, sayyoralar, burjlar va yetti qat osmon tavsifi vositasida sharq, xususan, arab, fors va turk xalqlari mifologiyasining badiiy talqinini aks ettiradi. Ayni paytda, o'zining kosmogonik, mifologik, diniy-tasavvufiy qarashlari hamda komillik va komil inson haqidagi bilim-u tasavvurlarini bayon qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алихонтўра Соғуний. Тарихий Муҳаммадий. – Тошкент: "Sharq", 2011. – Б. 93.
2. Алишер Навоий. Лисон ут-тайр. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019. – Б. 15.
3. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Nashrga tayyorlagan Vahob Rahmon. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2006. – B. 36.
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Nashrga tayyorlagan Vahob Rahmon. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2006. – B. 36.
5. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. Nashrga tayyorlagan Vahob Rahmon. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2006. – B. 36.
6. Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor. Nashrga tayyorlagan Vahob Rahmon. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2006. – B. 36.

MUALLIF LISONIY SHAXSI VA UNING TADQIQI XUSUSIDA

Umurzoqova M.E.

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-pochta: umurzakovamarkhabo@gmail.com

ORCID ID : 0000-0001-5658-789X

Tel (97) 490-06-76

Annotatsiya: Muallif lisoniy shaxsida ijodkorning olam haqidagi qarashlari, voqelikka munosabati bevosita personaj hamda muallif-hikoyachi nutqi vositasida yuzaga chiqadi. Muallif lisoniy shaxsining o'ziga xosligini ta'minlashda leksik birliklar muhim indikator hisoblanadi. Ammo muallif lisoniy shaxsini tadqiq qilishda sintaktik birliklar, gap qurilishidagi o'ziga xoslik, ijodkor individual uslubini ham hisobga olish zarur. Maqolada badiiy matnda muallif lisoniy shaxsi, uning asarda voqelanishi haqida so'z boradi. Muallif lisoniy shaxsi tadqiqiga doir qarashlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: lisoniy shaxs, muallif lisoniy shaxsi, konsept, idiolekt, idiouslub, pesonaj nutqi

Аннотация. В авторской языковой личности мировоззрение творца, его отношение к действительности выявляются непосредственно через речь персонажа и автора-рассказчика. Лексические единицы являются важным индикатором в обеспечении уникальности языковой личности автора. Но при исследовании языковой личности автора необходимо учитывать и синтаксические единицы, своеобразие в построении предложения, его индивидуальный стиль. В статье рассказывается о языковой личности автора в художественном тексте, о его реализации в произведении. Анализируются взгляды касающиеся на исследование языковой личности автора.

Ключевые слова: языковая личность, языковая личность автора, концепт, идиолект, идиостиль, речь персонажа.

Annotation. In the author's linguistic personality, the creator's worldview and his attitude to reality are revealed directly through the speech of the character and the

author-narrator. Lexical units are an important indicator in ensuring the uniqueness of the author's linguistic personality. But when studying the linguistic personality of the author, it is necessary to take into account syntactic units, the originality in the construction of the sentence, and his individual style. The article talks about the linguistic personality of the author in a literary text, about its implementation in the work. Views regarding the study of the author's linguistic personality are analyzed.

Keywords: linguistic personality, linguistic personality of the author, concept, idiolect, idiostyle, character speech.

KIRISH

Badiiy matnda yozuvchi lisoniy shaxsi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib yuradi. Eng avvalo yozuvchi o'zi mansub bo'lgan xalq tilining bilimdoni sifatida namoyon bo'ladi. U adabiy tilning barcha uslublarini egallagan, nutqning og'zaki va yozma shakllariga xos jihatlarni qat'iy chegaralay olgan holda muloqot sharoitlari va maqsadlariga mos ravishda biridan ikkinchisiga erkin o'tish imkoniyatiga ega bo'lgan shaxsdir. Muallif lisoniy shaxsining tadqiqi uning til birliklarini aktuallashtirish mahorati, olamning lisoniy manzarasini o'ziga xos uslub va bo'yoqlarda berishi haqida tasavvur paydo qiladi, shuningdek, uning idioslibi haqida axborot tashiydi. "Lisoniy shaxs olamning lingvistik manzarasini individual tarzda namoyon qiladi. Uning eng yorqin namunasi dunyoning obyektiv tasvirini ifodalaydigan, muallifning milliy, ijtimoiy, tarixiy omillarga asoslangan, o'z dunyoqarashi va falsafiy pozitsiyalarini namoyon qiladigan asari hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini berishda yozuvchi umumiy tushunchalarni o'z dunyoqarashi asosida qabul qiladi, tabiiyki uni aks ettirish uchun badiiy tasvir vositalari va usullarini shunga moslab tanlaydi" [3;8].

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbek tilshunosligida badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqini amalga oshirgan X.Yo'ldosheva badiiy asarda adib, ya'ni yozuvchi, shoir, dramaturg adresant, ya'ni matn yaratuvchi rolini bajarishi, matn yaratishda bir qancha vazifalarni bajarishi, turli ijtimoiy maqomlarga ega bo'lishini qayd etadi [4;40]. Tadqiqotchining fikricha,

matn muallifi matn yaratishdan to uni adresatga yetib borgunga qadar bajargan vazifalariga qarab, quyidagi ijtimoiy maqomlarda bo'ladi: "nutq yaratuvchi shaxs, matnni uzatuvchi shaxs, ma'lumot-axborot beruvchi shaxs, baho ifodalovchi shaxs, bilvosita kommunikativ aloqaga kirishuvchi shaxs" [4;40-41]. Ko'rinib turibdiki, muallif matnda qancha ijtimoiy maqomda bo'lsa, shuncha o'ziga xos shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Lekin bu shaxslarning hammasi ham lisoniy shaxs maqomiga ega bo'lmasligi mumkin. Ya'ni, yuqorida qayd etganimizdek, til egasining lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun bir qancha shartlar bo'lib, muallifning mahorati, tilning ifoda imkoniyatlaridan foydalanish darajasiga qarab lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

A.M.Ishegulova Y.N.Karaulov tasnifiga tayangan holda muallif lisoniy shaxsini tadqiq qilishning uch darajasini ko'rsatadi: "Muallifning (yozuvchi, shoir, dramaturg, publitsist) lisoniy shaxsini o'rganish ko'pincha uch darajada tahlil qilish orqali amalga oshiriladi: og'zaki-semantik (verbal-grammatik kod birliklari bilan ifodalanadi), lingvistik-kognitiv (tayanch so'zlar-konseptlar) va pragmatik (individual munosabatlar), bu bir muhim lisoniy shaxs misolidan foydalanib, uning bio-ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining birligida dunyoning lisoniy manzarasini qayta tiklashga imkon beradi"[3;8].

Muallif lisoniy shaxsi va muallif-hikoyachi lisoniy shaxshi ko'p hollarda uyg'un bo'lishi mumkin. Bunda voqelikka munosabat ham yozuvchi nuqtayi nazariga mos keladi. Ammo voqelik birinchi shaxs qahramon nutqidan hikoya qilinganda buni muallif lisoniy shaxsi deb qabul qilmaslik kerak. Har qanday holatda ham muallif pozitsiyasi sezilib turadi, ammo haqiqiy ijodkor o'z qarashi va qahramon qarashini qorishtirib yubormasligi, qahramon dunyoqarashiga mos birliklardan tanlashi, uning lisoniy shaxsini shakllantrishi lozim. Bir so'z bilan aytganda, pesonaj lisoniy shaxsi muallif lisoniy shaxsi soyasida qolib ketmasligi lozim. Agar bunday holat sodir bo'lsa, bir-biriga o'xshash, bir xil qiyofadagi bir xil ohangda so'zlashuvchi personajlar

yaratishiga sabab bo‘ladi, ya’ni qahramonlar lisoniy shaxsini bir-biridan ajratish mumkin bo‘lmay qoladi.

Taniqli rus yozuvchilari asarlarining sintaktik xususiyatlarini tadqiq qilgan O.Shatalova muallif obrazining namoyon bo‘lishi lisoniy aspektda turli lisoniy vositalar yordamida namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratadi. Bular quyidagilar: “1) nutqni tashkil etishning leksik va frazeologik jihatlar; 2) sintaksis – o‘rganilayotgan shaxs nutqiga xos bo‘lgan grammatik shakllar yig‘indisi sifatida; 3) so‘zlovchi lisoniy shaxsning kommunikativ-pragmatik maqsadini ifoda qilishda sintaktik sathda tinish belgilari asosiy vosita ekanligi; 4) troplar va boshqa uslubiy vositalarning til qonunlariga mos, ammo jodkorning individual, o‘ziga xos uslubiga mos qo‘llanilishi” [10;20]. Tadqiqotchi N.Normurodova ham muallifning badiiy diskursdagi shaxsiyatining namoyon bo‘lishini tilning barcha sath birliklari tizimi bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi: “Muallifning diskursiv shaxsiyati foydalanuvchi barcha til vositalari tizimi: leksik birliklar tanlovida, matnni tuzishning uslubiy, sintaktik va kompozitsion xususiyatlarida, matnning intensionallik va modallik kategoriyalarida namoyon bo‘ladi” [6;19].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yozuvchi lisoniy shaxsini badiiy nutqda elita shaxs sifatida o‘rganish murakkab jarayon bo‘lib, bunda fanlararo yondashuvlar talab qilinadi. Tilning asosiy vazifalarini turli aspektda tadqiq qilish lozim. Ijodkor lisoniy shaxsini elita deb tasniflashning asosiy mezonlarini tadqiqotchi O.Sklyarova quyidagicha belgilaydi: “1) yuqori darajada rivojlangan madaniy va nutqiy kompetensiyaning mavjudligi; 2) lingvistik va ijodiy salohiyatning mavjudligi; 3) adabiy tilning funksional uslublarining o‘ziga xos jihatlarini o‘zlashtirganlik, nutqda turli uslub elementlarining uyg‘unligini ta’minlay olish; 4) keng madaniy kontekstga mansublik, milliy va jahon madaniyati yutuqlarini bilish” [8;8].

Yozuvchining elita shaxs sifatidagi lingvistik shaxsi badiiy nutqda nafaqat muallifning olam haqidagi tasavvurlarini, balki u mansub bo'lgan millat kishilarining olam haqidagi tasavvurini, olamning milliy manzarasini, konseptlarni ham ifodalaydi.

Badiiy matnda yozuvchi lingvomadaniy xususiyatlarini ko'rsatishda intertekstuallik muhim ahamiyatga ega. Intermetnlar, xususan, yashirin ishora qilayotgan birliklar yozuvchining qanday madaniyatga mansubligi bilan birga, uning intellektual qobiliyati haqida ham tasavvur uyg'otadi. Mashhur qirg'iz yozuvchisi Ch.Aytmatov asarlarida intermetnlardan mahorat bilan foydalangan. Intermetnlar vositasida o'zi yoki qahramoni mansub bo'lgan madaniyat, qadriyatlar, urf-odatlar haqida o'ziga xos uslubda ma'lumot bergan. Muallif lisoniy shaxsini tadqiq qilishda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ko'pgina ishlarda ijodkorning idiositili e'tiborga olingan. Bu yo'nalishdagi an'anaviy usul – ijodkorning asarlari matnini tahlil qilish, kuzatilgan xususiyatlarni adabiy til me'yorlariga mos yoki mos emasligini aniqlash, uni boshqa ijodkor lisoniy shaxsi bilan taqqoslash, uning o'ziga xos individual uslubini ta'minlashga xizmat qilgan til birliklarini tahlil qilish nazarda tutiladi. Rus yozuvchisi F.Dostoyevskiy lisoniy shaxsini tadqiq qilgan I.V.Rujitskiy yozuvchining tilini leksikografik usul yordamida tadqiq qiladi, yozuvchining lug'atini tuzish orqali masalani yechish xolislik va oshkoralikni ta'minlashini qayd etadi [7;43]. Tadqiqotchi Dostoyevskiy badiiy matnda fe'llarni tanlashga juda e'tiborli bo'lganligini, dialogda bitta fe'lni deyarli takrorlamaganini, L.Tolstoy ijodida esa bitta fe'l ko'p takrorlangan o'rinlarni kuzatish mumkinligini ta'kidlaydi. Zamondosh yozuvchilari bilan qiyoslanganda fe'l turkumiga oid so'zlarni qo'llash, xususan, noyob, kam uchraydigan fe'llarni ishlatish bo'yicha ham yetakchilik qilishini tahlillar asosida ochib beradi [7;49].

Badiiy matnda qahramon lisoniy shaxsi nutqida asosan leksik birliklar, frazemalar, pretsedent birliklar, subyektiv baho hamda turli modal ma'nolarni ifodalovchi grammatik shakllardan foydalanish bilan farq qilsa-da, ammo unda muallifning ovozi sezilib turadi. O'zbek adabiyotida A.Qahhorning iboralardan,

A.Muxtor, U.Hamdamning publitsistik uslubga xos sintaktik qurilmalardan [11], Sh.Xolmirzayevning parsellyatsiyadan, T.Murodning okkazional soʻzlardan, sintaktik takrordan, E.A'zamning kirish hamda kiritmalardan, unumli foydalanishini ijodkor lisoniy shaxsining voqelanishining asosiy koʻrsatkichlari deyish mumkin.

Muallif lisoniy shaxsining badiiy matnda voqelanish haqida soʻz ketganda idiolekt va idiouslub tushunchalariga ham toʻxtalib oʻtish lozim. “Idiolekt (yunoncha idios – oʻziga xos, alohida+(dia)lekt). Muayyan shaxs nutqiga xos boʻlgan xarakterli belgilar” [9;23] majmui boʻlib, bu termin tishunoslikda dialektal mansublikni ifodalashda ham qoʻllaniladi. Idiolekt yakka shaxslarga xos boʻlgan nutqiy oʻziga xoslikni bildirib, har bir til egasining oʻz shevasi meʼyorlariga amal qilish bilan birga, oʻz nutqi va lugʻat boyligi, soʻz tanlash tarzi boʻlib, bu ham dialektologiyaning oʻrganish obyektiga kiradi [1;16]. Shu tarzda soʻz tanlash va qoʻllash har bir shaxsning idiouslubini yuzaga keltiradi. Tildagi oʻziga xoslik, individuallik masalasiga eʼtibor qaratish lozimligini V.fon Gumboldt ham taʼkidlagan edi: “Hamma odamlar goʻyoki bir tilda soʻzlashadilar, shu bilan bir vaqtda har bir odamning oʻz tili bor. Jonli soʻzlashuv nutqni va alohida individium nutqini oʻrganish zarur” [2;45].

Idiouslub ijodkor tilini oʻrganishda eng muhim obyekt sanaladi. Idiouslub deganda muayyan bir ijodkorning badiiy makonda ruhiy kechinmalari, aqliy salohiyatini individual shaklda namoyon boʻlishi tushuniladi. Har bir ijodkorning aqliy salohiyati, olamni anglashi, voqelikka munosabati turlicha boʻlsa-da, milliy mansublik, madaniyat, qadriyatlar va eng asosiysi milliy tilning yagonaligi uchun ham umumiyliklar boʻlishi tabiiy. Idiouslub nafaqat til birliklaridan foydalanish, balki mazmunning implitsit ifodasi, intensiyaning kitobxon tomonidan toʻgʻri anglanishi bilan ham belgilanadi.

Konsept lingvokulturologiyada faol qoʻllaniluvchi tushuncha boʻlib, oʻzbek adabiyotida konsept asrlar davomida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, shuningdek, diniy eʼtiqodlarga ham ishora qiladi. Buni zamonaviy adabiyotimiz vakillari asarlarida uchraydigan Qurʼon, hadislardan olingan havolalar misolida ham koʻrishimiz mumkin.

Masalan, S.Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasi motivlari Qur’oni karimda keltirilgan Ashobi Kahf bilan bog‘liq. Hikoya muallif tilidan hikoya qilingan bo‘lib, diniy mansublik, tushunchani ifodalovchi – *bomdod, namoz, joynamoz, Qur’on, tilovat, haj, vasiyat, Injil, butxona, cherkov, shom, asr, g‘assol*; urf-odatlar bilan bog‘liq birliklar – *sandiq, chilla, ko‘zmunchoq, tumor, kokil, jonliq, ma‘raka*; milliy mansublikni, xususiyatlarni bildiruvchi birliklar – *errayim, o‘zbekcha, o‘ris* kabi birliklar muallif mansub bo‘lgan madaniyat haqida tasavvur paydo qiladi. Hikoya tili nihoyatda ta’sirchan bo‘lib, hikoya qahramoni Saodat aya, qizi Qumrixon, nevarasi Anvarjon, o‘g‘li Bo‘rixon lisoniy shaxsini ishonarli tarzda aks ettirgan. Muallif nutqida qahramonlar nutqi bilan uyg‘unlikni ko‘rish mumkin. Qo‘llanilgan har bir leksik birlik lisoniy shaxs sifatida shakllantirilgan personajlar nutqini individuallashtirishga, o‘ziga xos qirralarini til vositasida ifodalashga xizmat qilgan. Shu o‘rinda muayyan bir til jamiyatiga tegishli bo‘lgan konsept va badiiy asarida ifodalangan konsept tushunchasi aynan bir tushuncha emasligiga e’tibor qaratish lozim. Badiiy asardagi konsept muallifning xususiy-individual olamini ham aks ettiradi.

Badiiy matn muallifning olam haqidagi bilimlarining muayyan bir vaziyat bilan bog‘liq jihatlarini o‘z qarashlari hamda munosabatlari bilan to‘yingan holda aks ettiradigan, tugallangan, xulosalangan obyektidir. Uni tahlil qilishda muallif shaxsini hisobga olish, qo‘llangan lisoniy birliklarning matnda bajargan vazifasini to‘g‘ri baholash muhimdir. Badiiy asar adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan tahlilda qilinganda psixologizmga ham e’tibor qaratiladi, tabiiyki, tilshunoslikda ham psixologizm muhim sanaladi. “Yozuvchining psixologik portreti uning asarlarini idrok etishilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatish bilan birga muallifning obraziga ham o‘ziga xos chizgilar berishda muhim sanaladi. Yozuvchining asarlarini tahlil qilish va uni shaxs sifatida o‘rganish ajralmas yagona jarayon hisoblanadi” [3;10].

O‘zbek tilshunosligida O‘.Hoshimov asarlari misolida lisoniy shaxs tiplarini tadqiq qilgan D.Niyazova yozuvchi lisoniy shaxsiga “yozuvchi asarning boshidan oxirigacha lisoniy shaxs maqomida bo‘ladi. U o‘z nutqi orqali gohida notiqlik

vazifasini bajarsa, goho hissiyotlarini oshkora yoki yashirin ifoda etuvchi til egasi sifatida gavdalanadi, ba’zan o’z personajlarini harakatlantiruvchi “yo’lboshchi” sifatida namoyon bo’ladi”, – deya ta’rif beradi [5;82-83]. Badiiy matnda qo’llanilgan har qanday lisoniy birlik o’ziga xos yukka, mavqega ega bo’ladi. E’tiborga arimasdek ko’ringan mayda detallar, ularning nomlari ham muallifning olam haqidagi tasavvuri haqida ma’lumot tashiydi. Muallif lisoniy shaxsini tadqiq qilishda leksik birliklar muhim ko’rsatkich hisoblansa-da, psixologizm kuchli ifodalangan, ramziylik yetakchilik qiladigan yozuvchilar lisoniy shaxsini tadqiq qilishda leksik birliklarga e’tibor qaratishning o’zi yetarli emas. Folklor, mifologik motivlarni asarlariga singdirib yuboradigan, asarlarida metaforik ifoda, yashirin ma’no yetakchilik qiladigan muallifning original, individual lisoniy shaxsini tadqiq qilish mushkul vazifa sanaladi. Xususan, o’zbek adabiyotida o’ziga xos uslub sohibi bo’lgan N.Eshonqul lisoniy shaxsini tadqiq qilishda yuqorida sanalgan jihatlarni inobatga olish bilan birga, ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslikka oid bilimlardan xabardorlik talab qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnda muallif lisoniy shaxsini tadqiq qilishda til birliklaridan foydalanish mahorati, badiiy tasvir vositalarini qo’llashi, sintaktik qurilmalardagi o’ziga xoslikni hisobga olish bilan birga yozuvchining shaxs sifatidagi jihatlarga, o’ziga xos uslubiga, asarning janr xususiyatiga ham e’tibor berish uni lisoniy shaxs sifatida baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O’zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2021.
2. Гумбольдт. В. фон. Избранные труды по языкознанию. – М. Прогресс, 1984
3. Ишегулова А. М. Языковая личность писателя Яныбая Хамматова (на материале художественных текстов): Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Уфа. 2016. – 23с.
4. Yo’ldosheva X. Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi. Filol.fan.d-ri (DSc) dissertatsiyasi. – Qarshi. 2023. – 227 b

5. Ниязова Д. Бадиий матнда лисоний шахс типлари: Филол. фан бўйича фалс. д-ри(PhD) ... дисс. – Қарши. – 133 б.
6. Нормуродова Н. Инглиз бадиий дискурсида антропоцентризмнинг лисоний воқеланиши: Филол. фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 77 б.
7. Ружицкий И.В. Языковая личность Ф.М. Достоевского: лексикографическое представление. Дисс... д-ра филол. наук. – М., 2015. – 647 с.
8. Склярова О.С. Лингвокогнитивный и лингвокультурный аспекты репрезентации элитарной языковой личности писателя в художественном дискурсе: Автореф. дисс...канд. фил. наук. – Майкоп, 2021. – 20 с.
9. Худойберганаева Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. –Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015. — 44 б.
10. Шаталова О.В. Синтаксическая характеристика языковой личности: Автореф. дисс. д-ра филол. наук. – Елец, 2012. – 51 с.
11. Umurzakova M.E. Types of linguistic personality in the literary text (on the example of Ulugbek hamdam's stories)
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=w6qGLxUAAAAJ&citation_for_view=w6qGLxUAAAAJ:WF5omc3nYNoC

ALISHER NAVOIY “SAB’AI SAYYOR” DOSTONIDAGI BADIY SAN’ATLARDA ARABIZM O’RNI

Madayeva M.,
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi o‘qituvchisi,
mutabar_aziz@mail.ru,
tel: (mob) 90 996 4769 (uy) 71 2465319

Annotatsiya: Ushbu maqola “Sab’ai sayyor” dostoni va unda qo‘llanilgan badiiy san’atlar, ularning ilmiy jihatdan ahamiyati, vazifalari hamda adabiyotshunos olimlarning Alisher Navoiy ijodidagi badiiy san’atlar haqida bildirgan fikr mulohazalari haqida bayon qiladi. Shu bilan birga, “Sab’ai sayyor” dostonida arab so‘zlari qo‘llanilgan baytlarda zulqofiyatayn, tarsi’, tajnis, musajja’, tajziya san’atlar ifodalangan baytlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Sab’ai sayyor” dostoni, zulqofiyatayn, tarsi’, tajnis, musajja’, tajziya.

РОЛЬ АРАБИЗМА В ЖАНРЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ИСКУССТВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ "САБЪАИ САЙЁР" АЛИШЕРА НАВОИ

Аннотация: В этой статье рассказывается об эпосе «Сабъаи сайяр» Алишера Навои и художественных искусствах, использованных в нем, и их научное значение, задачи, а также отзывы литературоведов о художественных искусствах в творчестве Алишера Навои. А так же приводятся байты «Сабъаи сайяр», в которых используются арабские слова в разных художественных искусствах такие как зулькофиятайн, тарсиъ, таджнис, мусаджаъ, таджзия.

Ключевые слова: Алишер Навои, «Сабъаи сайяр», зулькофиятайн, тарсиъ, таджнис, мусаджаъ, таджзия.

THE ROLE OF ARABISM IN THE ART OF THE SAGA OF ALISHER NAVOI “SAB'AI SAYOR”

Annotation: this article describes the epic “Sab'ai sayor” and the artistic Arts used in it, their scientific significance, tasks and the feedback made by literary

scholars about the Fine Arts in the work of Alisher Navoi. At the same time, bytes in which Arabic words are used in the epic “Sab'ai sayor” cite zulqafiyatayn, tarsi', tajnis, musajja', tajziya bytes in which the arts are expressed.

Keywords: Alisher Navoi, Sab'ai sayor, zulqofiyatayn, tarsi, tajnis, musajja, tajzia.

Kirish. So‘z she‘riyatda, xususan, badiiy asarda poetik obraz sifatida namoyon bo‘ladi va asarda badiiyat mohiyati aniqlashda asosiy teoretik o‘rinni egallaydi. Alisher Navoiy adabiy qarashlari bilan badiiyat masalasiga katta ahamiyat beradi. Shu sababli shoirning badiiy mahoratida leksik tarkibning o‘rganilishi muhim masala bo‘lib, uning dostonlari, asarlari yuzasidan ilmiy izlanish ishlari olib borish olim asarlari tilining leksik tomonlariga bo‘lgan alohida yondashuvni talab qiladi. Har bir asarda mavzu, ideya, syujet muhim o‘rin egallasa, ularning ma‘lum forma asosida uyg‘ulashuvi badiiyat usuli hisoblanadi. Navoiy asarlari jamiyat oldida e‘tiborli bo‘lishi uchun forma va mazmunga katta urg‘u beradi va “Xamsa” dagi deyarli hamma dostonlarida badiiy obrazlar orqali ifodalaydi.

“Sab‘ai sayyor”da badiiyatni “so‘z” bilan bog‘laydi.

Komile chunki muddao qilsa
 Ki, duri ma'nini ado qilsa,
 So'z libosidin etmayin oro,
 Xo'blar uylakim xazu xoro.
 Chiqa olmay og'iz darichasidin,
 Naf' topmay birov natijasidin.
 Chun kiyib so'z hariru debosin,
 Dilkash aylab jamoli zebosin.
 Bodadin yuzni la'lfom aylab,
 Ko'ngul ayvonida xirom aylab,
 Chiqsa toshqori tan saroyidin,
 Balki hulqum tangnoyidin,
 Solur andog' jahonda g'avg'oye,
 Koinot ichra bir aloloye.
 Kim, xaloyiqni darki lol aylar,
 Lol yo'q, balki xushmaqol aylar.⁴⁶

⁴⁶ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами, еттинчи жилд. Хамса, Лайли ва Мажнун, Сабъаи сайёр. Т: - Ғафур Ғулом. 2011, Б.297

Bu misralarda Navoiy badiiyatni nozik va latif, gulli ko‘ylak kiygan xusni dilkash go‘zalga o‘xshatadi. Bu yerda “xushmaqol” aylashi sezgi a‘zolariga jonli ta’sir etishi, bu mazmunni tushungan o‘quvchini lol qilishi ifodalangan. Shoir tashbeh yaratishda fors+arab so‘zlariga murojaat qiladi. Shu ma’noda Navoiy an’anaviy ma’nodan cheklanib misralarni jarangdor va jozibador qilishga intilgan.

Boshqa bir misrada

Tinmayin aylar erdi nazzora,

Shohni qildi ishq bechora.⁴⁷

نظارة va عشق arab so‘zlari orqali ma’noni yanada ta’sirchan ifodalagan. Umuman olganda bu yerda arab so‘zlari ikkinchi bosqichda turgani birinchi bosqichda esa, shohning oshiq bo‘lib qolgani va sevgilisini kuzatayotgan syujetni ifodalash turibdi. Yuqoradigi misralar bu fikrni tasdiqlaydi.

Qo‘ydi shah xizmatida farzona,

Shah pari ko‘rgach o‘ldi devona.⁴⁸

Shuningdek,

Oshiq o‘lg‘onki kechmagay jondin,

Ishq behad yiroqdurur ondin.⁴⁹

Misralarida عشق va عاشق ishq va oshiq so‘zlari ishtirok etgani ishtiyoq san’atini bildiradi. Ma’lumki, o‘zagi bir so‘zlar arab tilida turli vaznlarda ifodalanishi mumkin. Bu so‘zlar adibning til mahorati tufayli, shu bilan birga badiiy tafakkur salohiyati, turk, arab, fors tillarini qo‘llashdagi iqtidori voqeani kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tushta ishqin ham ayladi mafhum,

Bo‘ldi ma’shuqi ham anga ma’lum⁵⁰

⁴⁷ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами, еттинчи жилд. Хамса, Лайли ва Мажнун, Сабъаи сайёр. Т: - Ғафур Ғулом. 2011, Б.347

⁴⁸ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами, еттинчи жилд. Хамса, Лайли ва Мажнун, Сабъаи сайёр. Т: - Ғафур Ғулом. 2011, Б.347

⁴⁹ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами, еттинчи жилд. Хамса, Лайли ва Мажнун, Сабъаи сайёр. Т: - Ғафур Ғулом. 2011, Б.364

⁵⁰ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами, еттинчи жилд. Хамса, Лайли ва Мажнун, Сабъаи сайёр. Т: - Ғафур Ғулом. 2011, Б.413

Bu misralarda عشق va معشوق soʻzlari ishtiyoq sanʼatini ifodalayapti, shu bilan birga arab soʻzlari معلوم va مفهوم - “maʼlum, fahmlangan, tushunilgan” sinonim soʻzlarining ishtiroki bu misralardagi ohangdoshlikni tashkil qilib qofiyalangan.

Badiiy sanʼatlar haqida gap borar ekan, Alisher Navoiy ijodida badiiy sanʼatlar boʻyicha Anvar Hojiahmedov, Saidbek Hasanov, Yoqubjon Ishoqov, Maʼrufjon Yoʻldoshev, Karomat Mullaxoʻjaye⁵¹ koʻpgina maʼlumotlar berishgan, lekin arab tili bilan bogʻliq badiiy sanʼatlar yoʻnalishi aytib oʻtilgan boʻlsa ham izchil oʻrganilmagan. Shu sababli, “Sabʼai sayyor” dostonidagi arab soʻzlarining badiiy sanʼatlar ifodasidagi jihatlarini koʻrib chiqish mumkin.

Maʼlumki, Jahon adabiyotida qofiyadan foydalanish badiiy mahoratining muhim qirralaridan biri boʻlib hisoblanadi. Sharq shoirlari azaldan boshlab qofiya vositasida sheʼriy asarlarning ohangdorligi, serjiloligi, taʼsirchanligini taʼminlashga alohida eʼtibor berib kelganlar. Asrlar davomida xilma xil qofiya sanʼatlari shakllangan.

Zulqofiyatayn. Bayt misralarida ikki soʻzni qofiyadosh qilib keltirish sanʼati zulqofiyatayn (qoʻsh qofiya keltirish) sanʼati deyiladi. Har qaysi baytdagi qofiyadosh ikki soʻz misralar oxirida ketma ket keltirilishi yohud misralarning turli oʻrnida keltirilishi mumkin.⁵²

Masalan: Oʻz ishimda **tafakkur** erdi manga,

Ne **tafakkur, tahayyur** erdi manga⁵³

Arab leksikonidagi تَفَكُّر – تَخَيُّر (tafakkur – taxayyur) soʻzlari zulqofiyataynni ifodalamoqda. Shuningdek, bunday badiiy sanʼat dostonning har bir sahifasida aynan arab leksikoni uchragani 4-6 baytlarda uchraydi.

Agar ikki soʻz misra oxirida kelsa, bu xil qofiya mutakarrin qofiya deyiladi.⁵⁴

Arz jirmin qilib yeti **taqsim,**

⁵¹ A.Хожирахмедов. Мумтоз бадият малохати. – Тошкент.: Шарқ, 1998., С.Хасанов. “Сабъаи сайёр” нинг бадиятига доир. // Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари// мақолалар тўплами. – Тошкент.: Фан, 1993.Б. 67-85, Ё.Исҳоқов. Навоий поэтикаси. – Тошкент.: Фан, 1983., М.Йўлдошев. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент.: Фан, 2008., К.Муллахўжаева. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги. – Тошкент.: Akademnashr, 2019.

⁵² A.Хожирахмедов. Мумтоз бадият малохати. – Тошкент.: Шарқ, 1998. Б-218

⁵³ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами, еттинчи жилд. Хамса, Лайли ва Мажнун, Сабъаи сайёр. Т: - Фафур Фулом. 2011, Б.637

⁵⁴ A.Хожирахмедов. Мумтоз бадият малохати. – Тошкент.: Шарқ, 1998. Б-218

Aylading har birini bir **iqlim**,⁵⁵

Qofiyadosh ikki soʻz misralarda yonma-yon emas, balki ikki oʻrinda kelsa, ular mahjub qofiya deyildi.

Anga zohir **taqaddumi** oti,

Sanga lekin **taqaddumi** zoti.⁵⁶

Baytlarda qofiyalar shunday xildadir...

Tarsi'. Bayt misralaridagi barcha soʻzlarning qofiyadosh boʻlishini shu istiloh bilan aytganlar.⁵⁷

Ne **havosida** bir ne **xomis** ham,

Ne **jihotida** bir ne **sodis** ham.⁵⁸

Arab soʻzlari ishtirok etgan quyidagi bircha soʻzlar qofiyadoshdir.

Tajnis. Tajnisli qofiyalarni sheʼriy asarda qoʻllash ham qofiya sanʼatlaridan hisoblanadi. Maʼlumki, tajnisning oʻn ikki turi mavjud boʻlib, sheʼriyatda shularning aksariyatidan foydalanib kelingan.⁵⁹

Tojvarlargʻa boj etib **taʼyin**,

Shohlargʻa xiroj etib **taʼyin**.⁶⁰

Musajja'. "Sajʼli, qofiyali" maʼnosida boʻlib, baytlari ichki qofiya qofiyali boʻlgan sheʼriy asarlar shunday ataladi.⁶¹

Moniy oshufta shoh **holatidin**,

Mutahayyir boʻlub **malolatidin**.⁶²

Tajziya. (boʻlak-boʻlak qilmoq) ilmi badeʼ istilohlaridan boʻlib, bayt misralarining har birini ikki boʻlakka ajratib, misralardagi birinchi boʻlaklarni ham, ikkinchi boʻlaklarni ham oʻzaro qofiylash sanʼatidir.⁶³

Tamaʼ oʻz **mulkin** ayladi **obod**,

⁵⁵ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами, еттинчи жилд. Хамса, Лайли ва Мажнун, Сабъаи сайёр. Т: - Ғафур Ғулом. 2011, Б.276

⁵⁶ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами, еттинчи жилд. Хамса, Лайли ва Мажнун, Сабъаи сайёр. Т: - Ғафур Ғулом. 2011, Б.288

⁵⁷ А.Ҳожирахмедов. Мумтоз бадийят малоҳати. – Тошкент.: Шарқ, 1998. Б-222

⁵⁸ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами, еттинчи жилд. Хамса, Лайли ва Мажнун, Сабъаи сайёр. Т: - Ғафур Ғулом. 2011, Б.292

⁵⁹ А.Ҳожирахмедов. Мумтоз бадийят малоҳати. – Тошкент.: Шарқ, 1998. Б-222

⁶⁰ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами, еттинчи жилд. Хамса, Лайли ва Мажнун, Сабъаи сайёр. Т: - Ғафур Ғулом. 2011, Б.297

⁶¹ А.Ҳожирахмедов. Мумтоз бадийят малоҳати. – Тошкент.: Шарқ, 1998. Б-226

⁶² Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами, еттинчи жилд. Хамса, Лайли ва Мажнун, Сабъаи сайёр. Т: - Ғафур Ғулом. 2011, Б.351

⁶³ А.Ҳожирахмедов. Мумтоз бадийят малоҳати. – Тошкент.: Шарқ, 1998. Б-229

Ko‘ngli **mulkin** ham ayladi barbod.⁶⁴

bayti tajziya san’ati asosida bitilgan.

Yuqorida mumtoz qofiya badiiy san’atining “Sab’ai sayyor” dostonidagi arab so‘zlari ishtirokidagi baytlarda sanab o‘tildi.

Ma’naviy san’atlari: mubolag‘a, tashbih, tamsil, husni ta’lil, tajohuli orif, tashxis, intoq, talmih, laff va nashr, ruju’, istiora, tansiq, muqobala, kinoya, irsoli masal, tazmin, savolu javob, tavshih, iqtibos, iltifot, muammo;

Lafziy san’atlari: tajnis, iyhom, tanosub, ishtiyoq, tazod, ta’dil, raddul ajuz, tardu aks, jami’, taqsim, tafriq, jam’ va taqsim, jam’ va tafriq, takrir, mukarrar, tazmini muzdavij, kitobot, talmi’, muvozana, tarix, raddi matla’, insho – turlari mavjud. Bu san’atlarni arab so‘zlari ishtirokidagi baytlar va ularning tahlili alohida bir ilmiy ishga imkoniyat yaratadi. Bunday badiiy san’at namunalari Alisher navoiy ijodida ilmiy jihatdan mufassal tahlil qilinishiga imkon beradi.

Navoiy o‘zining ilmiy merosi bilan inson ruhiyatining erkinligi, insonning ichki olami, his-tuyg‘ularini ifodalab ma’naviyatni boyitishga katta hissa qo‘shgan. Adibning yuksak salohiyati, ma’naviy salobati bilan Vahdat ul-vujuddek nozik masala bilan jiddiy asarlar bitib katta yutuqlarga erishgan va o‘z zamonasining ulug‘ olimlari qatoridan munosib joy egallagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A.Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent.: Sharq, 1998.
2. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami, yettinchi jild. Xamsa, Layli va Majnun, Sab’ai sayyor. T: - G‘afur G‘ulom. 2011,
3. Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari (Maqolalar to‘plami). Toshkent: – "Fan", 1993.
4. Xondamir. Makorimul-axloq. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot, 1967.

⁶⁴ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами, еттинчи жилд. Хамса, Лайли ва Мажнун, Сабъаи сайёр. Т: - Ғафур Ғулом. 2011, Б.370

DESIGNING INDEPENDENT WORKS IN TEACHING KARAKALPAK DIALECTOLOGY

Kaypnazarova M.K.
PhD, associate professor of distance
learning department, NSPI

Rezyume. In this article, methodical recommendations are given for independent work in the dialectology of the Karakalpak language. Methodical recommendations for students to perform independent work are described through examples. Today, when information technologies are developing, there are various methods for perfect study of lessons and mastering topics. For this reason, exercises were shown to make it easier for students to complete theoretical topics during the course of the lesson.

Key words: dialectology, style, independent work, presentation, student assessment.

Резюме. В данной статье приведены методические рекомендации по выполнению самостоятельных работ по дисциплине «Дialeктология каракалпакского языка». Методические рекомендации для самостоятельной работы студентов описаны на примерах. Сегодня, с развитием информационных технологий, существуют различные методы идеального изучения уроков и усвоения тем. По этой причине были показаны упражнения, облегчающие освоение студентами теоретических тем в ходе занятия.

Ключевые слова: диалектология, метод, самостоятельная работа, презентация, оценка студентов.

The improvement of the independent work system, as well as the implementation of measures in higher education institutions, as well as the adoption of normative and legal requirements for the formation of the independent work system, indicate the importance of modern personnel training for this issue.

Looking at today's experience, we can conclude that it is difficult to convey all the information to students in one lesson in a field where communication technologies

are developing rapidly. This is the end of practice in this matter, if the student is especially busy, if he works tirelessly on his own, if he gets acquainted with many materials, he can deepen his knowledge. The reason is that the students' ability to freely observe their knowledge is increasing by simplifying it through the use of special tasks [1].

The special tasks in the lessons related to the Karakalpak language (dialectology) are the linguistic tasks that provide an opportunity to judge the students' abilities, and perform them in the direct course of their studies, but without any help, on the theoretical-practical materials. In the course of such tasks, not only the level of knowledge of the students, but also the application of the studied sciences in practice, especially the level of logical thinking, will create opportunities to develop.

Today we notice borrowing words in people's personal lexicons. We face some issues to find equivalents used instead of them. The results of the research indicate that it is possible to develop these words based on the dialect lexicon. It is possible to use them instead of foreign borrowings. Through this, students can practice activities working with dictionaries.

Today, it can be understood the process of extracting linguistic units from people's personal lexicons, searching for word meanings. The richness of language is preserved in all dialects, which is a root of oral language.

We focus on the problem of learning dialect words in the Karakalpak language. Initially it is paid attention to the phonetic, lexical, and morphological differences of words in order to learn dialect and its peculiarities. The examples given in the lessons are taken from the works of art, so we think that the given examples should be taken into consideration. The reason is that it is difficult to learn the lexical-semantic distinction without knowing the full description of dialect words. The reason is that it is necessary to be aware of the many limitations of a dialect word. There are dictionaries, but they may not fully cover some of the limits of dialect words. Most examples are compared with the usage in the south and north dialect. Finally, during

the professional practice of students in higher education, collecting dialect words is one of the best ways to familiarize students with materials from the native language.

During the professional practice, the students face some issues in the analysis of the materials they collected, for example, in the material they collected, they wrote down the examples from the adults, as a result, the word was called a dialect word. The reason is that the use of dialect words may be different, or it may be the individual use of the person. Finally, the methods of self-description of dialect materials, the question of their use in different intervals is a question of whether or not it is used in the particular region? Or, if not, how are local words belonging to the owners of a certain profession used? If it were collected through such kind of questionnaires, the lexical-semantic meaning of the word would be more complete in its description. We present a special self-study course to students, focusing on the methods of creating informative data.

Designing informative data

This self-study assignment is a type of designing oral informative data for students to present in seminars and tutorials. It has characteristics of identifying and generalizing the data and justifies the modern views on some issues. It differs from the reports and essays not only according to the length of data but also the meaning. Informative data involves facts and statistics. Additionally tasks can be submitted in written form. In this case the descriptive elements (illustration, demonstration) are included[1].

The time limit for reporting is 5 minutes.

Student's role:

- to collect and review the literature;
- to design plan and graphics structure of the data;
- to highlight the main views;
- to add extra materials which define the objective;
- to complete in written form (if necessary);

- to submit for the assessment.

The following points should be involved during the officialization of the data collected during the professional practice.

1. Name, surname and last name
2. Date of birth
3. Birthplace
4. Nationality
5. Occupation
6. Qualification
7. Address

It should be given a definition in order to analyze the words written from the texts. We give examples of lexical description. Hábben//shanaq - to carve the part of the seed in a regular shape. Qawındı hábben shawıp egedi (Taxtakópir district). This word is also used in the Southern dialect of the Karakalpak language. Northern dialect is mainly spoken in Shomanay, Kanlıkul, Khodjeli regions in the form of shanaq *Atızdı eginge tayarlap bolıp, shanaq shawıp shıǵamız, soń oǵan tuqım taslaymız.*

It is also said that the peel of melon and watermelon is called pálle, and the seed is *tuqım* or *shopaq*. In Khodjeli language, the peel of melon is called pálle, and its seed is called *tuqım*, but it is not used in the form of poshaq. In Kanlıkul dialect, "poshaq is used for the peel of melon, watermelon and vegetables." [2]. So, the words shopaq and poshaq are not used in all areas of north district.

We think that while analyzing such kind of examples it should be focused on the most effective methods such as "round table", "snowstorm" in order to reach its purpose. The reason is that all of these methods are methods that allow students to think independently and express their own opinions.

«Sinkwain » method

The term "Sinkwain" is taken from the French language and means "combination of five lines". Sinkwain method is an interactive method of providing the opportunity to briefly describe the materials related to the topic, using a few words with the help of structured ideas [3].

The requirement for the Sinkwain

- 1- Line is described with one word (noun) ;
- 2- line is described with two words (adjectives) ;
- 3- line is depicted with three words representing the action (verb) ;
- 4- line draws up a phrase of 4 words;
- 5- line selects a synonym for the word of the first line

Sample:

1. *Kepshe* – a tool intended for cutting narrow, sided jaws.
2. *Kishkene, sapli*
3. Terekti putaydı, qıysıq shaqalardı kesedi.
4. Boyı uzun aq terekti putawda, qıysıq shaqalardı kesiwde *kepshe* dım qolay (Kegeyli rayonu)
5. Miynet quralı [4].

REFERENCE

1. Avlev O.U. Juraeva S. N., Mirzaeva S.R. Talim metodlari. Toshkent «Navro'z» nashriyoti, 2017.
2. Шынназарова С. Қарақалпақстанның Қанлыкөл аймағындағы қарақалпақлардың сөйлеу тили өзгешеликleri: Филол. илим. канд. ... дис.автореф. – Нөкис, 2009.
3. O'zbekiston xalqaro Islam akademiyasi. Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası. Kredit-mudl tizimida mustaqtl talim. Uslubiy qullanma. Toshkent, «Complex Print» nashriyoti, 2021.
4. M.Каупназарова Qaraqalpaq dialektologiyası páninen ózbetinshe jumıslar. “Ilimpaz” baspası, 2023.

O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA DOSTON JANRINING USLUBIY SHAKLLANISHIDA "SAB’AI SAYYOR" DOSTONINING O‘RNI

Madayeva M.,
O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi o‘qituvchisi,
mutabar_aziz@mail.ru,
tel: (mob) 90 996 4769 (uy) 71 2465319

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotshunoslida Alisher Navoiyning "Sab’ai sayyor" dostonidagi uslubi va qay tarzda kompozitsion doston shakliga ega ekanligi haqida, Navoiy ijodiy merosida voqealarning serqirraligi, inson obrazini ta’riflab tabiat inson uchun xizmat qilishi lozimligini ilgari surgani, "na’t" san’atidan foydalanilgani, hayot daftari kabi dunyoviy masalalar, insoniylik qadriyatlari, tuyg‘ulari, fazilat va illatlarni teran nuqtai nazardan barcha sohalarni o‘zida mujassam etgani haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, "Sab’ai sayyor" dostoni, "Xamsa" dostoni, badiiy to‘qima, hikoya, sarguzasht, peyzaj, syujet, arabizm.

РОЛЬ ПРОИЗВЕДЕНИЯ "САБЪАИ САЙЁР" В МЕТОДОЛОГИЧЕСКОМ СТАНОВЛЕНИИ ЭПИЧЕСКОГО ЖАНРА В УЗБЕКСКОМ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Аннотация: В данной статье рассуждается о стиле и композиционной форме эпоса «Сабъай сайяр» Алишера Навои в узбекском литературоведении, а также многообразии событий в творческом наследии, роли природы в описании человеческого образа, использовании «наът» искусства, книга о светских проблемах жизни, человеческих ценностях, чувствах, добродетелях и пороках, охватывающая все сферы в глубокой перспективе.

Ключевые слова: Алишер Навои, эпос «Сабъай Сайяр», эпос «Хамса», художественная фактура, повесть, приключение, пейзаж, сюжет, арабизм.

THE ROLE OF THE EPIC "SAB'AI SAYOR" IN THE METHODOLOGICAL FORMATION OF THE EPIC GENRE IN UZBEK LITERARY STUDIES

Annotation: In this article, Alisher Navoi discusses the style and compositional form of the epic "Sab'ai Sayyar", the diversity of events in Navoi's creative heritage, the role of nature in describing the human image, the use of "naat" art, the book of life secular issues, human values, feelings, virtues, and vices that encompass all areas in a deep perspective.

Keywords: Alisher Navoi, "Sab'ai Sayyar" epic, "Khamisa" epic, artistic texture, story, adventure, landscape, plot, Arabicism.

O'zbek adabiyotshunosligida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodi ma'nan, mazmunan va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bunda Navoiy ijodidagi asarlarning badiiy mahorat, izchil shakllar bilan voqealarni tasvirlanishi, har bir masalaga alohida e'tibor qaratilgani, syujet asnosida katta bir ma'no borligi shu bilan birga poetik yondashuvning aniqligini aytib o'tish lozim. Alisher Navoiy "Sab'ai sayyor" dostonini badiiy to'qimalar orqali hikoya ichida hikoya, unda yettilikni ifoda etib noan'anaviy tarzda yozganini guvohi bo'linadi. Bahrom obrazi orqali afsonani o'z zamonasidagi voqealarning muhim tomonlarini yoritishni va bu voqealarga o'z munosabatlarini bildirishni asosiy maqsad qilgan. Ushbu asar tuzilishi, timsollarning ko'pligi, masalalarning qo'yilishi bilan boshqa dostonlardan farq qiladi. Bahrom va Dilorom sarguzashtlariga yetti hikoyani uyg'unlashtirib yaxlit bir butun kompozitsion doston yaratadi.

Navoiy ijodi serqirraligi bilan adabiyot olamida katta bir e'tiborga loyiq. Badiiy vositalar san'ati bilan mohirona foydalangani, turk, arab va fors tili iboralarini qo'llaganligi, voqealarni tasvirlashi shu bilan birga ilohiy mavzuga nozik did bilan yondashib keng ko'lamda yorqin namoyon etgan. Shu bilan birga adolatsizlikka qarshi, xurofotga qarshi haqiqat uchun kurash olib boradi, mehnatkash xalqning og'ir hayoti, urf-odati, xalq qahramonlarining matonatini bir asar orqali chambarchas bog'laydi.

"Sab' ai sayyor" dostonining ilk satrida Navoiy insonga Alloh tarafidan jon berib boshqa maxluqotlardan farqli, til va aql berganini mohirona tasvirlaydi va insonning ulug' zot ekanligini tilga oladi:

Ey siposing demakda el tili lol,
Elga til sendin o'ldi tilga maqol.
Sendin insong'a toru pudi jasad,
Jasad ichra ko'ngul-ko'ngulda xirad.

"Sening ta'rifingni bayon etishga xalqning tili ojiz, sen insonga til berding, nutq ato etding, jasadiga qalb aql bilan bog'lading va insonni aziz qilding"

Darhaqiqat, professor Aziz Qayumov ta'kidlaganidek: "Shunisi muhimki, Navoiy qaysi masalaga, voqea, o'rin va zamondagi holatga yondashmasin, u markaziy o'ringa insonni qo'yadi, barcha borliq, tabiat inson uchun xizmat qilishi kerakligini uqtirib boradi, peyzaj tasviri albatta uning istirohati bilan bog'lanadi"⁶⁵.

Adam erkanda aylamak mavjud,
Bo'lsa mavjud qilmog'ing nobud⁶⁶

Sen yo'q insonni yaratib unga e'tibor berding, insonni bor qilish ham yo'q qilish ham sening qo'lingdadir.

Hozirgi keltirilgan parchada Allohning inoyati bilan insonning yaratilishini va Alloh xohlagan vaqtda insonning bu dunyodan ketishini ixlos bilan ta'riflaydi.

Alisher Navoiy ijodi umuman olganda hayot daftari kabi diniy va dunyoviy masalalar, insoniylik qadriyatlari, tuyg'ulari, fazilat va illatlarni teran nuqtai nazardan barcha sohalarni o'ziga qamrab olgan. Hikmat bo'stoni kitobida quyidagi fikrlar bildirilgan "Navoiy olam va odam mohiyati haqida ko'p bosh qotirgan, tiriklik va o'lim sabablari ustida muttasil mulohaza yuritgan, inson hayotining maqsadi, ma'no-mazmuni xususida bir umr o'ylagan, tabiat va jamiyat sirlarini yechishga intilgan. Uning chuqur bilim, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajriba, teran tafakkur va shoirona o'tkir nigoh bilan uyg'unlashgan fikr-mulohazalari, falsafiy xulosalari

⁶⁵ Алишер Навоийнинг адабий маҳорати масалалари (Мақолалар тўплами). Т.: Фан. 1993. – Б. 109

⁶⁶ Алишер Навоий. 10 том. Хамса. Сабъи сайёр. Тошкент: 1992. – Б. 9

hikmat kabi jaranglashi shundan"⁶⁷.

Yo rasulalloh, alfa-alfa salom,
Bika min zil-jaloli val-ikrom.
Qurashiy asl, Abtahi mahmil,
Hoshimiy kish, Yasribiy manzil.
Ul quyoshkim, arabqa berding zayn,
Ul sifatkim, arab boshi uza ayn.
Lek chunkim quyoshing etti zuhur,
Qilding ikki jahonni g'arqai nur.⁶⁸

Ey Allohning rasuli, barcha shonu sharaflar, izzat-ikrom sohibi, Sizga mingdan ming durudu salomlar bo'lsin. Abtahi zaminidan asli qurayshiylik, hoshimiy qabilasidan bo'lib, asli manzillari Yasrib edi. Ular xuddi quyosh nuri kabi arab olamini bezatdilar, butun arab elining ko'zlariga quyosh nurini ko'z qorachig'idek joylab qo'yдилarki, quyosh ko'rinishi bilan ikki jahonni nurga to'ldirdi.

Navoiy "Sab' ai sayyor" dostonining yuqorida keltirgan misralarida Muhammad (SAV) ga salovatlar bilan ularning ta'riflari ila "na't" san'ati bilan boshlaydi. Shoir o'z fikrlarini bayon etishda arabizmlardan mohirona foydalanadi. "Xamsa" dostoni aslida o'zbek tilida yozilgan asarlar qatoriga kiradi, forsiy, turkiy, arabiy so'zlar shoir fikrlarining badiiy ifodasini yanada jonlantirib berishga xizmat qilgan. Qofiyaga tushirish uchun ham arabiy so'zlarni qo'llagan. "Alfa-alfa salom" iborasida arabcha qo'llab, o'zbek tilidagi "mingdan ming" iborasini ishlatmagani, shu bilan birga "zayn" - bezatish, "ayn" – ko'z, so'zlaridan esa qofiya yasab foydalangan. Asarni lug'at boyligi bilan boyitib adabiyotga badiiy san'atlar bilan chiroyli, ta'sirli iboralarni qo'llagan.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, filologiya fanlari doktori Muhammadjon Imomnazarov: "Dunyo tamadduni rivojiga ulkan hissa qo'shgan

⁶⁷ Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Т.: "О'zbekiston", 2011, Б. 9

⁶⁸ Алишер Навоий. 10 том. Хамса. Сабаи сайёр. Тошкент: 1992. Б. 11

Alisher Navoiy asarlarini har safar o'qiganimizda, unda komil inson talqinining yangi qirralarini ko'ramiz",⁶⁹ - deb aytgan edi. Darhaqiqat, Navoiy ijodi serma'no g'azallar, tarbiyaviy ahamiyatga ega bebaho dostonlari, asarlari jahon madaniyatining durdona meroslari qatoridan o'rin egallab kelmoqda. Germaniyaning Berlin shahrida bo'lib o'tgan Navoiy ijodiy merosiga bag'ishlangan yuqori nufuzga ega bo'lgan xalqaro konferensiyada Kaliforniya (AQSH) universitetining professori Mark Tuton: "Navoiy ijodiy merosini o'rganishni boshlaganimda, uning naqadar buyuk daho ekanligiga amin bo'ldim", - deb aytgan⁷⁰. Mark Tuton 2014 yilda nomzodlik dissertatsiyasini Navoiyning "Xamsa" dostonini boshqa o'rta asrlar mualliflarining asarlari bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirgan va muvaffaqiyatli himoya qilgan.

Alisher Navoiyning har bir ilmiy asarlari o'ziga xos xususiyatlari bilan bir biridan farq qilib o'ziga xos yo'nalishlarga ega. Ushbu maqolada "Sab'ai sayyor" dostonining ayrim ilmiy jihatlarini ko'rsatib o'tildi. Navoiy boy merosi katta-katta xalqaro ilmiy konferensiyalarda e'tirof etilar ekan, Navoiy butun dunyo xalqlarining ardoqli adibi, qomusiy mutafakkiri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari (Maqolalar to'plami). Toshkent: – "Fan", 1993.
 2. Xondamir. Makorimul-axloq. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot, 1967.
 3. Alisher Navoiy. 10 tom. Xamsa. Sab'ai sayyor. Toshkent: – "Fan", 1992.
 4. Alisher Navoiy. Hikmatlar. Toshkent: - "O'zbekiston", 2011.
 5. Vohidov R. Alisher Navoiy va ilohiyot. "Buxoro", 1994.
- Internet manbalari:
6. <http://navoiy.uz/navoiy/1252-sheriyat8196osmonining8196porlok8196yulduzi>.
 7. <https://uzbekistan.lv/>

⁶⁹ <http://navoiy.uz/navoiy/1252-sheriyat8196osmonining8196porlok8196yulduzi.html>

⁷⁰ <https://uzbekistan.lv/%D0%BC%D0%B5%D0%B6%D0%B4%D1%83%D0%BD%D0%B0%D1%80%D0%BE%D0>